

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

**Tarix fanidan
umumiy o‘rta ta'limning
o‘quv dasturlari**

TOSHKENT -2015

Tarix fanidan umumiy oʻrta ta'lim maktabining oʻquv dasturi

Uqtirish xati

Oʻzbekiston milliy davlat mustaqilligini qoʻlga kiritgandan keyin ta'lim davlat siyosatining ustuvor sohasiga aylanib, ushbu sohada tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Oʻzbekiston tarixini oʻrganish bu boradagi markaziy sohani egallaydi.

Umumiy oʻrta ta'lim davlat standartini ishlab chiqish uchun Oʻzbekiston Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim toʻgʻrisida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asos qilib olindi.

Tarix umumiy oʻrta ta'lim maktablari (V-IX sinflar) hamda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari (keyingi bosqichlarda) asosiy oʻquv fani sifatida oʻqitiladi.

Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining V-IX sinflarida Oʻzbekiston va jahon tarixining qadimgi zamonlardan XX asr boshlarigacha boʻlgan davri oʻrganiladi.

Tarixiy hodisalar va voqyealarni oʻrganishga qoʻyilgan talablar (V-IX sinflar) oʻquvchilarning yoshi, bilim saviyasi, ruhiy xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi darajalariga mos boʻlishi lozim. Shunga muvofiq tarzda oʻquv fani ikki yoʻnalishni tashkil etadi.

Jahon tarixi.

Oʻzbekiston tarixi.

Tarixdan hikoyalar eng qadimgi davrlardan shu kunlarga boʻlgan ayrim epizodik lavhalarni oʻz ichiga oladi.

6-9 sinflarda davriy izchillik bilan insoniyat paydo boʻlgan eng qadimgi davrdan XX asr boshlarida roʻy bergan voqyea-hodisalar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar tarixi oʻrganiladi. Ya'ni quyidagi tartibda oʻrganiladi:

5sinfda Tarix fan sifatida oʻrganilmay, qisman tarixiy tasavvur hamda eng sodda tushunchalarni egallash bilan cheklaniladi.

VI-sinf Tarix (68 soat) oʻquv fani asosiy predmet sifatida oʻrganiladi. Bunda eng qadimgi davrlardan milodning V asr ikkinchi yarmigacha boʻlgan davrdagi jahon va Oʻzbekiston tarixi oʻrganiladi.

VII-sinf Oʻzbekiston tarixi (51 soat)- mamlakatimiz tarixining V asridan XVI asrgacha boʻlgan davrini qamrab oladi.

VII-sinf Jahon tarixi (51 soat) -dunyo xalqlari tarixining V asridan XVI asrigacha boʻlgan davri oʻrganiladi.

VIII-sinf Oʻzbekiston tarixi (51 soat) -tariximizning XVI asrdan XIX asr oʻrtalarigacha boʻlgan davr oʻrganiladi.

VIII-sinf Jahon tarixi (51soat)da esa XVI asrdan XIX asrning 70 yillarigacha boʻlgan davr oʻrganiladi.

IX-sinf Oʻzbekiston tarixi (51 soat) - mamlakatimiz tarixining XIX asrning ikkinchi yarmidan 1918-yilgacha boʻlgan davr tarixi bilan tanishtiradi.

IX-sinf Jahon tarixi (51soat)da XIX asrning 70-yillaridan XX asrning 1918 yillarini oʻz ichiga oladi.

Dastur mavzularini oʻrganish uchun ajratilgan soatlar miqdori oʻqituvchi ixtiyoriga koʻra maktab metod birlashmasi va Viloyat (shahar, tuman) xalq ta'limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda qayta koʻrib chiqilishi mumkin.

Tarix fani chuqur oʻqitiladigan sinflarda mazkur dasturda berilgan mavzular kengaytirib oʻqitiladi.

Eng yangi davr tarixini oʻrganish umumta'lim maktablari (V -IX sinflar) vazifasiga kirmaydi. Uni izchillikda oʻrganish oʻrta maxsus, kasb-hunar ta'limi oʻquv yurtlarida davom ettiriladi.

Tarix ta'limida oʻquvchilar nimani bilishlari, nimani mustaqil oʻqib olishlari, qanday muammolarni oʻrganishlari muhim ahamiyatga ega. Bu-davlat ta'lim standartida talab etilgan bilim koʻnikmalarning minimal darajasini egallash demakdir.

Oʻquvchilar tarixiy hodisalarning mazmunini bilishdan tashqari, tarixiy voqyealarni bir-biri bilan taqqoslay olishlari, mustaqil fikr yuritib, ularga baho berishlari, voqyealar mohiyatini tushuntira olishlari,

yozma ifodalay olishlari zarur. Birinchi darajali voqyealardan ikkinchi darajalisini farqlay olishlari, ularni ijtimoiy tahlil qilib, xulosalar chiqara olishlari zarur.

5-sinf “TARIXDAN HIKOYALAR” (68 soat, haftasiga 2 soatdan)

1-dars. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q (1 soat).

Vatan ta‘rifi. O‘zbekiston –bizning Vatanimiz. Mustaqillik o‘zligimizni anglashga imkon berdi. “Tarixdan hikoyalar” darsligi bilan ishlash.

I-bob. Tarix fani nimani o‘rganadi?

2-dars. Tarixiy manbalar (1 soat).

Tarixni nima uchun o‘rganamiz. Tarixiy manbalar. Moddiy va ma‘naviy yodgorliklarning tarixini o‘rganishdagi ahamiyati.

3-dars. Kalendarlar tarixidan (1 soat).

Kalendar tarixi vatani Yuliy kalendar Grigorian kalendarlarining joriy etilishi.

4-dars. Tarixda yil hisobi (1 soat).

Yil hisobining kelib chiqishi. Milodiy va hijriy yilning boshlanishi hamda ularning tarixi haqidagi hikoyalar. Xronologiya tushunchasi.

5-dars. Dunyo xaritasi tarixi (1 soat).

Dastlabki xaritalar. Globusning yaratilishi. Zamonaviy xaritalar.

II-bob. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlari

6-dars. Eng qadimgi odamlar va ularning manzilgohlari (1 soat).

Afrikadagi qadimgi manzilgohlar. Osiyodagi qadimgi manzilgohlar. Yevropadan topilgan qadimgi inson izlari. O‘zbekiston hududidagi qadimgi manzilgohlar.

7-dars. Qadimgi odamlarning turmush tarzi (1 soat).

Qadimgi odamlarning mehnat qurollari. Qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari. Qadimgi odamlarning yashash joylari. (1 soat).

8-dars. Arxeologiya tarixidan (1 soat).

Arxeologlar qanday ishlaydilar? Suvosti arxeologiyasi.

9-dars. Nazorat ishi-1.

10-dars. Takrorlash.

III bob. Kishilik madaniyatining shakllanishi.

11-dars. Qoyatosh suratlari (1 soat).

Ilk san‘at namunasi. Altamira, Kapovaya va Lasko g‘orlari. O‘zbekiston hududidagi qoyatosh suratlari.

12-dars. Yozuv –insoniyatning buyuk kashfiyoti.

Ilk yozuvning paydo bo'lishi. Qadimgi yozuvlar va ularning turlari. Alifboning vujudga kelishi. O'zbekistonda yozuv.

13-dars. "Avesto" –ajdodlarimiz yaratgan ilk yozma tarixiy manba (1 soat).

“Avesto” – zardushtiylikning muqaddas kitobi. Avestoda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash.

14- dars. Muzeylar.

Muzeylar nima uchun kerak? Jahonning mashhur muzeylari. O'zbekiston Respublikasining muzeylari.

15-dars. Nazorat ishi-2.

16-dars. Takrorlash.

IV bob. Dastlabki sivilizatsiyalar ,shaharlar va davlatlar.

17- dars. Yevropa va Amerikada dastlabki sivilizatsiyalar (1 soat).

Sivilizatsiya haqida. Krit – Yevropaning dastlabki madaniyat o'chog'i. Mikena madaniyati. Mayya madaniyati.

18-dars. Qadimgi shaharlarning paydo bo'lishi. (1 soat).

Shaharlarning paydo bo'lishi. Memfis shahri. Bobil shahri. Nineviya shahri. Afina shahri. Sparta shahri. Rim shahri.

19 –dars. Dunyoning qadimgi davlatlari.

Qadimgi Misr va Bobil davlatlari. Qadimgi Xitoy va Hindistonda davlatning vujudga kelishi.

20-dars. Qadimgi dunyoning yetti mo'jizasi.

Yetti mo'jiza haqida. Misr ehromlari. Semiramida osma bog'lari. Olimp xudosi Zevs haykali. Ma'buda Artemida ibodatxoasi. Quyosh xudosi Gelios haykali. Aleksandriya mayog'i. Galikarnas maqbarasi.

21-dars. O'zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar.

Qadimgi ajdodlarimiz. Xorazm davlati. Baqtriya davlati. Sug'd davlati.

22-dars. Nazorat ishi-3.

23-dars. Takrorlash.

V bob. Savdo va aloqa.

24-dars. Tangalar - tarix guvohi (1 soat).

Dastlabki tangalar. Tangalar tarixdan guvohlik beradi. Qadimgi va zamonaviy tangalarda ramzlarning aks etishi.

25-dars. Savdo yo'llari.

Qadimgi karvon savdo yo'llari. Buyuk Ipak yo'li. Qadimgi dengiz savdo yo'li.

26-dars. Yangi dengiz savdo yo'llarining ochilishi. (1 soat).

Dengiz savdo yo'llariga ehtiyojning o'sishi. Yangi dengiz savdo yo'llarining ochilishi. Keyingi kashfiyotlar. Jahon savdo aloqalari.

27 -dars. Ishlab chiqarish texnikasining paydo bo'lishi. (1 soat).

Ishlab chiqarish texnikasi nima? Sanoatda ishlab chiqarish

28-dars Transport vositalarining ixtiro etilishi (1 soat).

Bug' mashinasidan foydalanish sohasining kengayishi. Jahonda temiryo'llar qurishning boshlanishi. Samolyotning yaratilishi.

29-dars. Aloqa vositalarining ixtiro etilishi. (1 soat).

Telegrafning ixtiro etilishi. Telefonning yaratilishi. Radio tarixi.

30-dars. Nazorat ishi-4.

31-dars. Takrorlash.

VI bob. Vatanimizda va Yevropada ilm-fan taraqqiyoti.

32- dars. Maktab – bilim o'chog'i.(1 soat).

Insoniyat hayotida maktabning o'rni. O'rta Osiyoda ta'lim. Qorixona. Xorazm Ma'mun akademiyasi.

33-dars. Yurtimizning buyuk allomalari(1 soat).

Aniq va tabiiy fanlarning rivoji. Muso al-Xorazmiy. Ahmad al-Farg'oniy. Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino.

34- dars. Mirzo Ulug'bek va uning akademiyasi. (1 soat).

Mirzo Ulug'bekning yoshlik yillari. Ulug'bek buyuk alloma. Ulug'bek Akademiyasi.

35- dars. Yurt obodonchiligi, adabiyot va san'at.

Shaharlarning obodonlashtirilishi va me'morchilik. Alisher Navoiy. Kamoliddin Behzod.

36-dars. Yevropada ilm –fan kashfiyotlari.

Kopernik kashfiyotlarining jahonshumul ahamiyati. Jordano Bruno va Galileo Galileylarning astronomiya faniga qo'shgan hissasi.

37-dars. Turkiston ma'rifatparvarlari.

Ma'rifat va ma'rifatparvarlik haqida. Mahmudxo'ja Behbudiy. Munavvar qori Abdurashidxonov. Ozodlik uchun kurashganlar nomi va xotirasi barhayot.

38-dars. Takrorlash.

VII Ozodlik uchun kurashgan qahramonlar.

39-dars. To'maris va Shiroq jasorati.

Ahamoniylarning O'rta Osiyoga kirib kelishi. Shiroq jasorati.

40-dars. Spitamenning qahramonligi.

Makedoniyalik Aleksandrning O'rta O'siyoga yurishi. Spitamenning qahramonligi.

41-dars. Arablarga qarshi xalq ozodlik kurashi.(1soat)

Muqanna qo'zg'olonining sabablari. Qo'zg'olonning natijasi.

42-dars. Nazorat ishi-5.

43-dars. Jaloliddin Manguberdi xalqimizning milliy qahramoni. (1soat)

Mo'g'ullarga qarshi mardonavor kurash. Jaloliddin Manguberdi - jasur va mohir sarkarda. Xalqimizning milliy qahramoni mangu barhayot.

44-dars. Sohibqiron Amir Temur . (1 soat).

Amir Temur hayoti va faoliyati. Amir Temur qudratli davlat asoschisi va Yevropa xalqlari xaloskori.

45-46- dars. Rossiya imperiyasi va Sovet mustamlakachiligi. (2 soat)

Rossiya imperiyasining maqsadi. Bosqinning boshlanishi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Sovet mustamlakachiligining o'rnatilishi. Ozodlik uchun kurashchilar unutilmaydi.

VIII bob. O'zbekistonning qadimgi shaharlari, tarixiy yodgorliklari.

47- dars. O'zbekistonning tarixiy shaharlari. (1 soat)

Samarqand shahri. Buxoro shahri. Xiva shaxri. Shahrisabz shahri. Qarshi shahri. Termiz shahri.

48-dars. O'zbekiston poytaxti Toshkent -2200 yoshda. (1 soat)

Toshkentning qadimgi o'rni. "Toshkent" atamasi haqida. Mustaqillik va ulkan bunyodkorlik.

49-dars. O'zbekistonning tarixiy-me'moriy yodgorliklari.(1 soat)

Ismoil Somoniy maqbarasi. Minorayi Kalon. Registon majmuasi. Oqsaroy. Ichan qal'a.

50-dars. Nazorat ishi-6.

51-dars.Takrorlash (1 soat).

IX bob. Insoniyat tarixidagi jahon urushlari.

52- dars. Birinchi jahon urushi. (1soat)

Urushning sabablari. Urushning boshlanishi va uning natijalari.

53 - dars. Birinchi jahon urushi va Turkiston. (1soat)

Urushning Turkistonga ta'siri. Qo'zg'olonning boshlanishi. Jizzax qo'zg'aloni. Qo'zg'olonning yengilish sabablari va ahamiyati.

54-dars. Ikkinchi jahon urushi. (1soat)

Ikkinchi jahon urushining sabablari. Urushning fojiali oqibatlarini.

55-dars. Gitler Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekistonning qo'shgan hissasi. (1soat)

O'zbekiston xalqining mehnat jasoratlari. Qishloq mehnatkashlarining jasorati. O'zbekistonlik askarlarning frontdagi jasoratlari. Xotira abadiydir.

X bob. Jahonda tinchlik va hamkorlik uchun kursh.

56-dars. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)(1soat)

BMTning tuzilishi sabablari va uning maqsadlari. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar a'zosi.

57- dars. BMT va dunyo bolalari.(1soat)

BMT bolalar huquqi himoyachisi. YUNISEFning faoliyati. YUNISEF mablag'i.

58 – dars. Nazorat ishi-7. (1 soat).

XI-bob. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida.

59-dars. O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi (1soat).

O'zbekistonning birinchi Prezidenti. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlari.

60- dars. O'zbekiston iqtisodiyotidagi yutuqlar.(1soat)

O'zbekistonning g'alla mustaqilligi. Neft mustaqilligi. O'zbekiston paxtasining dunyodagi o'rni. Zamonaviy sanoat.

61-dars. Ma'naviy va ma'rifiy yuksalish.(1soat)

Milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi. Navro'zning tiklanishi. Diniy bayramlarning tiklanishi. Buyuk bobolarimiz qutlug' nomlarining ulug'lanishi. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik.

62-dars. O'zbekiston va jahon.(1soat)

O'zbekiston davlat mustaqilligining dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinishi. O'zbekiston mintaqaviy tashkilotlar a'zosi.

63- dars. Takrorlash (1 soat).

XII-bob. Dunyo xalqlari XXI asrda

64-dars. Dunyo xavfsizligiga tahdid.

Insoniyat tinchligiga xavf solayotgan kuchlar. Mintaqaviy mojarolar va ularning xavfi. Xalqaro terrorchilik. Diniy ekstremizm. Ekologik muammolar.

65-dars. XXI asr– ilm-fan va taraqqiyot asri.

Nima uchun XXI asr ilm va taraqqiyot asri deb yuritiladi? "Kuch –bilim va tafakkurda".

66-dars. Nazorat ishi-8.

67-dars. Yakunlovchi umumlashtiruvchi dars.

6-SINF "TARIX" (68 soat, haftasiga 2 soatdan)

Kirish 1 soat.

Boy tarix va madaniyat o'lkasi. Vatan tarixi. Madaniy merosimiz va an'alarini o'rganishning ahamiyati. Tarixni o'rganuvchi fanlar. Arxeologiya, antropologiya, etnografiya. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Boy ma'naviyat va yuksak ahloqiy me'yorlar tushunchasi. O'zbekiston tarixi bo'yicha bilim manbalari.

I. BO'LIM. Eng qadimgi tuzumdan sivilizatsiya sari (6 soat).

1-dars. Qadimgi tarix -sivilizatsiyasining ibtidosi.

O'zbekiston va jahon sivilizatsiyasi. Tarixni davrlashtirish va xronologiya.

2-dars. Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari.

Eng qadimgi odamlar hayotining izlari. Eng qadimgi odamlar manzilgohlari: Seleng'ur, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat, Sharqiy va Janubiy Afrika, Yava oroli, Xitoy, Farg'ona vodiysi, Germaniya, Ispaniyadagi Altamir, Fransiyadagi Lasko g'orlari. Qadimgi odamlarning mashg'ulotlari. Qadimgi odamlarning mehnat qurollari. Diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi.

3-dars. Urug'chilik jamiyati.

Irqlarning shakllanishi. Ilk urug'chilik jamiyati. Mezolit davri. O'q yoyning kashf etilishi. Bo'zsuv, Obishir, Machay. San'at va diniy tassavurlarning rivojlanishi. Qoyatoshlardagi tasvirlar. Zarautsoy. Neolit. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikning shakllanishi. Ziroat va chorvachilik. Kulolchilik. Uy joylar. Neolit davri ovchi va baliqchilari.

4- dars. Eneolit va bronza asri ziroatchilari.

Eneolit davri moddiy madaniyati va xo'jaligi. Bronza davri taraqqiyotining asosiy belgilari. Patriarxat-ota urug'i. O'zbekiston hududida ilk ziroatchilar. Sopollitera, Jarqo'ton, Zamonbobo manzilgohlari, me'morchilik, hunarmandchilik. Madaniy aloqalar.

5-dars. Temir davriga o'tishda O'rta Osiyoning rivojlanishi.

Hunarmandchilikning rivojlanish sabablari, metalga ishlov berishning rivojlanishi. Bronza davri kulolchiligi. Urug' jamoalarining inqirozga uchrashi, qo'shni jamoasining vujudga kelishi.

Takrorlash.

II BO'LIM. Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo (19 soat).

6-dars. Nil vodiysi va uning aholisi.

Misr-Nil in'omi. Misrliklarning mashg'ulotlari. Hunarmandchilikning rivojlanishi. Misr davlatining vujudga kelishi. "Nom"larning vujudga kelishi.

7-dars. Misr va qo'shni xalqlar.

Qadimgi Misrliklarning qo'shnilari. Nubiya. Liviya, Falastin, Suriya. Fir'avnlarning istilolari. Old Osiyo, Falastin, Nubiya, Suriya va Finikiyaning bosib olinishi. Fir'avnlarning bosqinchilik yurishlari va ularning natijalari.

8-dars. Qadimgi Misr dini.

Misrliklarning tevarak - olam to'g'risidagi tasavvurlari. Misrliklarning xudolari. Fir'avnlarning ilohiyashtirilishi. Qohinlar va ibodatxonalar.

9-dars. Piramidalar va maqbaralar.

Piramidalar va zamon. Sfinkslar. Tutanxamon. Mo'miyolash. Muqaddas hayvonlar.

10-11-dars. Qadimgi Misr madaniyati.

Yozuv. Ierogriflar. Nazariy bilimlarning vujudga kelishi. Adabiyot ravnaqi.

Takrorlash.

12-dars. Mesopotamiya sivilizatsiyalari.

Mesopotamiya aholisining mashg'ulotlari. Shumer va Akkad. Gilgamish haqidagi rivoyatlar.

13-dars. Babil podsholigi.

Babil "Xudolar darvozasi". Hamurappi qonunlari. Yangi Babil podsholigi. Babil madaniyati.

14- dars. Old Osiyo davlatlari va ularning qo‘shnilari.

Xett davlati. Ossuriya podsholigi. Urartu davlati. Finikiya va Falastin.

15- dars. Ahamoniylar davlati.

Ahamoniylar davlati aholisi. Eron hududidagi qadimgi davlatlar. Fors podsholigining paydo bo‘lishi. Doro I islohotlari. Qadimgi forslar madaniyatining rivojlanishi.

16-dars. Hindiston sivilizatsiyasi.

Hududi va aholisi. Hindistonning eng qadimgi sivilizatsiyalari, diniy e‘tiqodi. Kastalar.

17- dars. Miloddan avvalgi I ming yillikda Hindiston.

Hindiston davlati. Chandragurta "Xudolarsiz din". Ilm va madaniyatning rivoji. "Mahobxorot", "Ramoyana" va "Ranchatantra".

18-dars. Xitoy qadimgi sivilizatsiyalari.

Xitoyda sivilizatsiyaning vujudga kelishi. Aholi mashg‘ulotlari. "podsholiklar davri" davrida Xitoy.

19-dars. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Xitoy.

Markazlashgan davlatning tashkil topishi. Buyuk Xitoy devori. Xitoydagi xalq qo‘zg‘olonlari. Qadimgi Xitoy madaniyati. Sin davlati hukmronligiga qarshi "Lyu Ban" boshchiligidagi qo‘zg‘olon. "Qizil qoshlilar" va "Sariq ro‘mollilar" qo‘zg‘olonlari.

20-dars. O‘zbekiston hududidagi ilk davlatlar.

O‘zbekiston hududida qadimda aholining joylashishi. Miloddan avvalgi asrlarda xo‘jalikning rivojlanishi. Ilk davlat birlashmalari. Qiziltera. yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Ko‘zalikir.

21-22-dars. Zardushtiylik.

Zardushtiylikning vujudga kelishi tarixi. Zardusht. Zardushtiylikning tarqalishi. Zardushtiylik xudolari. Ahuramazda, Mitra, Anaxita, Ahriman. "Avesto" zardushtiylik marosimlari.

Takrorlash.

III. BO‘LIM. Qadimgi Yunoniston (13 soat).

23-dars. Antik tarixning boshlanishi.

Hududi va mashg‘ulotlari. Minoy sivilizatsiyasining vujudga kelishi. Yunonlarning dengiz sayohatlari.

24-25-dars. Qadimgi Yunonistonning yuksalishi.

Yunon polisleri. Shahar davlatlar. Afina davlati. Sparta davlati. Yunon koloniyalari.

26- dars. Afinada demokratiyasi.

Afinada demokratiyaning shakllanishi. Drakont qonunlari. Salon islohotlari. Afinada demokratiya ravnaqi. "Prekl asri".

27- dars. Yunon - fors urushlari.

Ellada va Eron. Marafon jangi. Fermopil jangi. Salamin jangi.

28- dars. Yunonistonning Makedoniya tomonidan bosib olinishi.

Yunonistonning qulashi sabablari. Demosfen. Xeroney yaqinidagi jang. Yunoniston Makedoniya tarkibida.

29-30 dars. Qadimgi Yunoniston madaniyati.

Fuqarolar tarbiyasi. Olimpiya o'yinlari. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari. Yunonistonda teatr. Arxitektura va haykaltaroshlik. Fidiy va Dedal. Parfenon ibodatxonasi.

31-32 dars. Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari.

Qadimgi Yunonistonda ilm-fan. Geraklit, Demokrit, Diogen, Gerodot, Aristotel, Arximed, Afinalik donishmandlar. Platon, Sokrat.

33-34 dars. Qadimgi Yunoniston afsonalari.

Qadimgi yunon afsonalarining qahramonlari. Qadimgi yunonlarning xudolari.

Takrorlash.

IV BO'LIM. O'RTA OSIYO (11 SOAT)

35-36-dars. O'rta Osiyoga Ahamoniylarning bosqinchilik yurishlari.

Kir II va uning bosqinchilik yurishlari. Doro I ning saklar ustiga yurishlari. To'maris va Shiroq jasorati. Ahamoniylar hukmronligi davrida davlatning boshqarilishi. Satraplik. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda madaniyat taraqqiyoti.

37-38-dars. O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi.

Miloddan avvalgi IV asrda Makedoniyaning yuksalishi. O'rta Osiyo xalqlarining qurollari va harbiy san'ati. Makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlari. Spitamen qo'zg'oloni. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga bostirib kirishining oqibatlari.

39-40-dars. Salavkiylar davlati va Yunon Baqtriya podsholigi.

Baqtriya va So'g'diyona Salavkiylar davlati tarkibida. Yunon Baqtriya davlati. Iqtisodiyot, madaniyat va xalqaro aloqalar rivoj topishi.

41-dars. Qadimgi Xorazm, Qang' va Dovon davlati.

Xorazm tarixi va madaniyati. Ko'zaliqir, Jonbosqal'a Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a. Qadimgi Dovon davlatining tashkil topishi, hududi va aholisi. Dovon davlatining tashqi aloqalari. Qadimgi Qang' davlatining tashkil topishi, hududi va aholisi. Madaniy aloqalari. O'zbek davlatchiligi tarixida tutgan o'rnini.

42-43-dars. Qadimgi Kushon podsholigi.

Kushon podsholigining tashkil topishi. Kudzula, Kadfiz, Vima, Kanishka. Iqtisodiyotning rivojlanishi. Yozuv. Diniy e'tiqodlar. Arxitektura va san'at.

44- dars. Buyuk ipak yo'li.

Buyuk ipak yo'lining vujudga kelishi, uning shaxobchalari va yo'nalishlari. Buyuk ipak yo'lining ahamiyati.

Takrorlash.

V BO'LIM. Qadimgi Rim. (12 SOAT)

45-dars. Italiya va uning aholisi.

Italiyaning hududi va tabiiy sharoiti. Rimga asos solinishi. Qadimgi Rimda davlat boshqaruvi.

46- dars. Rim Respublikasi.

Respublikani boshqarish. Senat. Respublika. Diktator. "12 jadval qonunlari".

47-dars. Rim Respublikasi hayoti.

Rim shaharlarida hayot. Qadimgi rimliklarning xudolari. Diniy marosimlar va qohinlar.

48-dars. Oʻrta yer dengizida hukmronlik uchun kurash.

Rim armiyasi. Puni urushlari. Karfagenning vayron etilishi. Rim provinsiyalari.

49- dars. Qullar va gladiatorlar.

Rimda qullarning ahvoli. Gladiatorlar janji. Spartak boshchiligidagi qoʻzgʻolon.

50-dars. Rim Respublikasining qulashi.

Respublika qilashining sabablari. Sezar diktaturasi. Hokimiyat uchun kurash va uning oqibatlari.

51- dars. Rim imperiyasining qulashi va zavoilga yuz tutishi.

Rim imperiyasining Gʻarbiy va Sharqiy qismlarga boʻlinishi. Imperiyaning qulashi. Varvarlar. Gotlarning Rimni ishgʻol etishi. Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi.

52- 53- dars. Qadimgi Rim madaniyati.

Rim quldorlari va kambagʻallarning turmushi. Ta'lim. Arxitektura, haykaltaroshlik. Xristianlikning vujudga kelishi.

54-dars. Ma'naviyat manbalarida.

Qadimgi qoʻlyozmalar. Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida tarixga munosabat.

Takrorlash darsi.

Yakunlovchi umumlashtiruvchi dars 1 soat.

8 soat NI.

**7 – sinf «JAHON TARIXI» Oʻrta asrlar davri.
(51 soat)**

Kirish (1 soat).

Oʻrta asrlar davri tarixini oʻrganish uchun mavjud manbalar. Oʻrta asrlar davri jahon tarixining bir qismi. U nimani oʻrganadi? Oʻrta asrlarning davrlashtirilishi, uning oʻziga xos xususiyatlari. Bu davrda jahon mamlakatlarning ijtimoiy tuzumi haqida umumiy tushunchalar.

I BOʻLIM. Oʻrta asrlarning birinchi davri (10 soat)

1-dars. Xalqlarning buyuk koʻchishlari va uning oqibatlari.

IV-VI asrlarda xalqlarning buyuk koʻchishi. Germanlar va ularning Gʻarbiy Rim imperiyasi hududida joylashishi. Germanlarning ijtimoiy tuzumi. Germanlarda tengsizlikning paydo boʻlishi, uning oqibatlari. Germanlarning mashgʻulotlari. V asr oxirlarida German qabilalarining istilolari. Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi. Gʻarbiy yevropa ijtimoiy tuzumida sodir boʻlgan oʻzgarishlar.

2- dars. Franklarning ijtimoiy tuzumi va davlatning tashkil topishi.

Franklar davlatining tashkil topishi. Xlodvig zamonida qirol hokimiyati, uning kuchayishi. “Sali haqiqati”. Xristian dinining qabul qilinishi. Cherkovning qirol hokimiyati bilan ittifoqi. Erkin dehqonlarning asoratga tusha boshlashi, uning sabablari. Qirol hokimiyati, uning mohiyati. Erkin jamoachi dehqonlarning asoratga solinishi. Yirik yer egaligiga oʻtilishi. Qaram dehqonning erkin dehqondan farqi.

3- dars. Franklar imperiyasi.

Karolinglar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Buyuk Karl. Uning istilolari. Frank imperiyasining tashkil topishi. Buyuk Karl davrida davlatning idora qilinishi. Yirik yer egaligining qaror topishi va uning xususiyatlari. Qaram dehqonning quldari farqi, xo'jayin yeri, dehqonning chek yeri. Jamoa yerlarining feodallar qo'lida to'planishi, uning xususiyatlari. Qaram dehqonlarning majburiyatlari: obrok, barshchina, ushr. Dehqonlarning hayoti va mehnati. Mehnat qurollari. Natural xo'jalik. Buyuk Karl imperiyasining parchalanib ketish sabablari. Buyuk Karl vorislari, ular olib borgan o'zaro urushlar, ularning oqibatlari.

Verden shartnomasi. Uch qirollikning vujudga kelishi. Qirol hokimiyatining zaifligi. Feodal mulk, uning mohiyati. Feodal tarqoqlik davrida o'zaro urushlar, ularning oqibatlari.

4- dars. Muqaddas Rim imperiyasi.

Karolinglar hukmronligi davri. Saksoniyaliklar sulolasi hukmronligi. Germaniya imperiyasining tashkil topishi. Rim papasi va Otton I munosabatlari. Frankoniya sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Sulola va Rim papalari o'rtasidagi ziddiyatlar. Imperatorlar va Rim papalari kurashi.

5- dars. V-XI asrlarda Angliya.

Angliyaning birlashtirilishi. German qabilalarining bosqini. Angliya-Daniya munosabatlari. Shimoliy davlatning tuzilishi. Ijtimoiy hayot. "Donolar kengashi" faoliyati.

6- dars. VI-XI asrlarda Vizantiya imperiyasi.

Imperiyaning tashkil topishi. Vizantiya taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari. Vizantiya shaharlari. Hunarmandchilikning rivojlanishi va savdo-sotiqning o'sishi. Yustinian hokimiyati va uning siyosati. Vizantiyaning zaiflashuvi. Vizantiya madaniyatining yuksak darajada rivojlanishi.

7- dars. Slavyan davlatlarining tashkil topishi.

Slavyanlarning joylashishi. Slavyanlarning mashg'ulotlari va ijtimoiy tuzumi. Slavyan davlatlaridan: Chexiya davlati, Polsha davlatlarining tashkil topishi. Birinchi Bolgariya podsholigi. Xalq qo'zg'olonlari.

8- dars. Kiev Rusi davlati.

Davlatning tashkil topishi. Kiev Rusi davlatida feodal munosabatlarning qaror topishi. Kiev Rusi davlatining mustahkamlanishi. Vizantiya bilan munosabatlar. Vladimir Monamax knyazligi. Ijtimoiy hayot.

9- dars. VI-XI asrlarda yevropa xalqlarining madaniyati.

yevropa madaniyati markazi. Cherkov va madaniyat. Ta'lim. Me'morchilik, xalq ijodi. Qo'lyozma kitob san'ati. Kiril va Mefodiy yozuvlari.

Takrorlash 1 soat.

II BOB. VI-XI ASRLARDA OSIYO XALQLARI (6 soat).

10- dars. Yangi din beshigi.

Arabiston Islomgacha bo'lgan davr. Islom dinining vujudga kelishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Islom dini, uning mohiyati. Muhammad(s.a.v) payg'ambar faoliyati.

11- dars. Arab xalifaligi va uning istilochilik siyosati.

Xalifalik haqida. Istilochilik urushlari. Hokimiyat uchun kurash. Abbosiylar hukmronligi. Xalifalikning parchalanishi.

12- dars. Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati.

Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyati. Arab xalifaligi mamlakatlarida san'at. Ilm-fan taraqqiyoti. Xalifalik davrida O'rta Osiyo olimlarining jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi.

13- dars. IV-XI asrlarda Hindiston.

Hindistonda Guptalar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. Xarsha imperiyasi. Aholining xo'jalik mashg'ulotlari, savdo aloqalari. Hindiston madaniyati.

14- dars. V-XI asrlarda Xitoy.

Suy imperiyasining tashkil topishi. Tan imperiyasi davrida tashqi siyosat. Agrar munosabatlar, shaharlar, hunarmandchilik va savdo. Xitoy madaniyati.

Takrorlash (1 soat).

II BO'LIM. JAHON XALQLARI O'RTA ASRLARNING IKKINCHI DAVRIDA (XI-XV ASRLAR).

III BOB. HUNARMANDCHILIK VA SAVDO-SOTIQNING RIVOJI. SHAHARLARNING YUKSALISHI (9 SOAT).

15- dars. yevropada o'rta asrlar shaharlarining vujudga kelishi.

Xo'jalikdagi o'zgarishlar. Hunarmandchilikning ajralib chiqilishi. Shaharlarning vujudga kelishi. Shahar mudofaasi. Hunarmandlar ustaxonasi va hunarmandlar sexi.

16- dars. Tovar xo'jaligi va savdo-sotiq.

Tovar xo'jaligining vujudga kelishi. Savdo-sotiq yo'lidagi to'siqlar. Sharq bilan savdo-sotiq aloqalari. yevropa shimolidagi savdo-sotiq ishlari. Yarmarkalar va sarroflar. Banklarning vujudga kelishi. Birjalarning vujudga kelishi.

17- dars. yevropa shaharlari hayoti. Osiyo shaharlari.

Shahar va feodallar. Shaharlarni o'z-o'zini boshqaruvi. Shaharliklarning turmushi. Osiyo davlatlari shaharlari. Hunarmandchilik. Savdo-sotiqning rivojlanishi.

Takrorlash (1 soat).

18- dars. Xristian cherkovining jamiyatdagi o'rni.

Xristian dinining ikkiga bo'linishi va uning oqibatlari. Katolik cherkov davlati. Provaslav cherkovi. Katolik cherkovining qudrati. Cherkovlarning daromati. yeretiklar va ularga qarshi kurash.

19- dars. Salib yurishlari va uning oqibatlari.

Salib yurishi nima? Salib yurishini keltirib chiqargan sabablar. Salibchilar qo'shini. Urushga da'vat.

20- dars. Dastlabki salib yurishlari va uning oqibatlari.

Salib yurishining boshlanishi. Quddus qirolligining tashkil topishi. Diniy ritsarlik ordenlari. Salibchilarga qarshi kurash. Ikkinchi va uchinchi salib yurishlari.

21- dars. Keyingi salib yurishlari va oqibatlari.

To'rtinchi salib yurishi. Keyingi salib yurishlari. Salib yurishlarining to'xtashining sabablari. Salib yurishlarining oqibatlari.

Takrorlash (1 soat).

IV BOB. G‘ARBIY yevropada Markazlashgan Davlatlarining Tashkil Topishi (9 soat).

22- dars. Fransiyada markaziy hokimiyatning vujudga kelishi (1 soat).

Ichki siyosiy ahvol. Birlashish sabablari va unig natijalari.

23- dars. Fransiyada toifaviy monarxiyaning qaror topishi (1 soat).

Aholining toifalarga bo‘linishi. General shtatlarning chaqirilishi. General shtatlardagi ixtilof.

24- dars. Fransiyani birlashtirish yolidagi harakatlar (1 soat).

100 yillik urush, uning kelib chiqish sabablari. Urushning boshlanishi. Mamlakatdagi og‘ir ichki vaziyat. Jakeriya qo‘zg‘oloni. Angliya bilan sulh shartnomaning imzolanishi.

25- dars. Fransiyani birlashtirishning tugallanishi (1 soat).

Janna d’Ark. 100 yillik urushning tugashi. Fransiyada mutlaq monarxiyaning qaror topishi. Sulh shartnomasi. Fransiyaning siyosiy jihatdan birlashuvi. Fransiyada markazlashgan feodal davlatning tashkil topishi. Lyudovik XI ning idora usuli.

26- dars. Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi (1 soat).

Normandlar istilosi oqibatlari. Kuchli qirollik hokimiyati. “Buyuk erkinlik xartiyasi”. Angliya parlamenti.

27- dars. Angliyaning XIV-XV asrlardagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti (1 soat).

Iqtisodiy taraqqiyot. Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi. Uot Tayler qo‘zg‘oloni. Qo‘zg‘olonning ahamiyati. Tyudorlarning hokimiyat tepasiga kelishi.

28- dars. G‘arbiy yevropa xalqlari madaniyati (1 soat).

Dunyo haqidagi tasavvurlarning kengayishi. Ilm-ma'rifatning rivojlanishi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi. Kitob bosishning ixtiro qilinishi.

29- dars. G‘arbiy yevropada san'at va adabiyot. Gumanizm (1 soat).

Me'morchilikdagi yangi uslublar. Haykaltaroshlik taraqqiyoti. Kitob miniaturasi. Adabiyot. Xalq og‘zaki ijodi. Gumanizm.

Takrorlash (1 soat).

V BOB. Rivojlangan O‘rta asrlarda Germaniya va Rus yerlari (5 soat).

30- dars. XII - XV asrlarda Germaniya.

Siyosiy taraqqiyotning o‘ziga xosligi. Shtaufenlar sulolasi hukmronligi. Imperator hokimiyatining tushkunlikka uchrashi. XIII-XV asrlarda Germaniyadagi siyosiy ahvol.

31- dars. Rusda feodal tarqoqlik va uning oqibatlari.

Kiev Rusining bo‘linib ketishi. Rusning feodal tarqoqligi sabablari va uning oqibatlari. O‘zaro feodal urushlari, mamlakat mudofaa qobiliyatining zaifligi, knyazlar va boyarlar o‘rtasidagi o‘zaro nizolar,

mayda knyazlarning mavjudligi. Novgorod boyarlar respublikasi. Kiev knyazligi. Knyazlar va boyarlar o'rtasidagi kurash. Galich-Volin knyazligi. Vladimir-Suzdal knyazligi.

32- dars. Chet el bosqinchilarining Rusga hujumi.

Mo'g'ullar hujumi. Shved va nemis bosqinchilarining hujumi. Aleksandr Nevskiy faoliyati.

33- dars. Rusning mo'g'ullar zulmidan ozod bo'lganligi.

Rusni yagona davlatga birlashtirish shart - sharoitlarining yetila borishi. Kulikova jangi. Rusning ozod bo'lganligida Amir Temurning o'rni.

Takrorlash (1 soat).

VI BOB. SALJUQIYLAR VA USMONLI TURKLAR (2 soat).

34- dars. Saljuqiy va Usmonli turklar davlatlari.

Saljuqiy turklar davlatining vujudga kelishi, ravnaqi va parchalanishi. Usmoniy turklar davlati va ularning dastlabki istilolari. yevropaga tahdid. Vizantiya imperiyasining barham topishi.

Takrorlash (1 soat).

**VII BOB. XI-XV ASRLARDA OSIYO, AMERIKA VA
AFRIKA XALQLARI (9 SOAT).**

35- dars. Mo'g'ullar davlati va uning istilochilik urishlari.

"Yakka mo'g'ul ulusi"ning tashkil topishi. Istilochilik urushlariga tayyorgarlik. Istilochilik urushlari. Mo'g'ullar istilosining oqibatlari. Mo'g'ullar davlatidagi ichki ziddiyatlar.

36- dars. Oltin O'rda xonligi.

Xonlikning tashkil topishi. Berkaxon hukmdorligi davrida Oltin o'rda. Imperiyada ziddiyatlarning kuchayishi. Oltin O'rdada ijtimoiy munosabatlar. Oltin O'rdaning qulashi.

37- dars. XIII-XV asrlarda Xitoy.

Xitoyning zaiflashuvi. Mo'g'ullar bosqini va uning oqibatlari. Min sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Min sulolasining ichki va tashqi siyosati. Madaniyat.

38- dars. O'rta asrlarda Yaponiya.

Yaponiyada yer egaligi jamiyatining qaror topishi. Imperator va syogun hokimiyati. Xodzyo xonadoni hukmronligi. Yaponiyaning tashqi ahvoli. O'zaro ichki urushlarning avj olishi. Xo'jalikning rivojlanishi. Yaponiya madaniyati.

39- dars. XI-XV asrlarda Hindiston.

Dehli sultonligining tashkil topishi. Sultonlikning ijtimoiy hayoti. Sultonlikning zaiflashuvi. Dehli sultonligining keyingi taqdiri. yevropaliklarning kirib kela boshlashi.

40- dars. Amerika o'rta asrlarda.

Amerikaning tub aholisi va ularning mashg'ulotlari. Mayyalar. Atsteklar. Inkalar.

41- dars. Afrika xalqlari o'rta asrlarda.

Afrika davlatlar: Gana, Mali, Songai, Gvineya, Benin davlatlari haqida umumiy ma'lumot. Afrika xalqlari madaniyati.

Takrorlash (1 soat).

Yakunlovchi takrorlash (1 soat).

7-SINF O‘ZBEKISTON TARXI (51 soat)

KIRISH (1 SOAT).

Kursning asosiy maqsad va vazifalari. Mamlakatimiz hududida yashagan aholining hayotidagi tub o‘zgarishlar haqida. O‘rganiladigan davrning o‘ziga xos xususiyatlari.

I BOB O‘RTA ASRLARDA YERGA EGALIK QILISH MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI (8 SOAT).

1- dars. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar.

V-VII asrlar davlatlari. V-VII asrlarda Vatanimiz hududida yashagan aholining ijtimoiy hayotidagi tub o‘zgarishlar. yerga egalik qilishning yangi shaklining qaror topishi va uning rivojlanishi. Qishloq jamoasining dehqon va unga qaram kadivar, koranda tabaqalarga ajralishi.

2- dars. Ilk o‘rta asrlar davlatlari.

Xorazm davlati. Ko‘chmanchi chorvador, hiyoniy va kidariylarining kirib kelishi. Eftalilar davlati.

3- dars. Eftallar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

Eftallarning ijtimoiy va madaniy hayoti. Eftalilar davlatining inqirozga uchrashi.

4- dars. O‘rta Osiyo xalqlari Turk xoqonligi davrida.

Turk hoqonligi. G‘arbiy Turk hoqonligining hududlari. Uning ijtimoiy va madaniy hayoti.

5- dars. G‘arbiy Turk xoqonligi.

G‘arbiy Turk xoqonligining hududi, davlat boshqaruvi, tudunlar faoliyati, Ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xalq qo‘zg‘olonlari.

6- dars. Mahalliy hokimliklarning tashkil topishi.

So‘g‘d ihshidlari, Tohariston malikshohlari, Choch, Iloq, budunlar va dehqonlari hamda Farg‘ona ihshidlari boshqargan davlatlar.

7- dars. VI-VII asrlarda madaniy hayot.

Shaharlar. Shaharlarning "Ark", "Shahriston" va "Rabot" deb nomlangan qismlari. Feodal qo‘rg‘onlari va ko‘shklar. Madaniy hayot, me'morchilik. Yozuv va savod, diniy e'tiqod hamda san'at.

Umumlashtiruvchi takrorlash.

II BOB. O‘RTA OSIYO NING ARABLAR TOMONIDAN FATH ETILISHI, XALQ QO‘ZG‘OLONLARI (VII-VIII asrlar) (6 soat).

8- dars. Islom dini va Arab xalifaligi.

Islom dinining vujudga kelishi. Movarounnahrqa qarshi dastlabki yurishlar. Movarounnahrning zabt etilishi.

9- dars. Mavorounnahr fath etilishining iqtisodiy va ma'naviy oqibatlari.

Arablar tomonidan O‘rta Osiyo hududining fath etilishi. Islom dini va uning tarqalishi.

Ishlab chiqarish usulining o‘shishi va uning o‘ziga xos hususiyatlari, dehqon jamoalari, chorikorlik, savdo va hunarmandchilikning ahvoli.

10- dars. Xalifalik hukmronligiga qarshi xalq harakatlari.

Arablar siyosatiga qarshi xalq qo‘zg‘oloni. Arab istelochilari davrida o‘lkamizda mavjud bo‘lgan yerga egalik shakllari.

11- dars. Abbosiylar davrida Xuroson va Movarounnahr. Abu Muslim qo‘zg‘oloni.

Abbosiylar davrida Movarounnahr. Xalq noroziligining kuchayishi. Qozg‘olonchilarning to‘planishi. Qo‘zg‘olonchilarning maqsadlari. Abu Muslim qo‘zg‘olonlari.

12- dars. “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni.

Qo‘zg‘olonning boshlanish sabablari. Qo‘zg‘olonning borishi va yengilish sabablari va uning oqibatlarini.

Takrorlash.

III BOB. MOVAROUNNAHRDA MUSTAQIL DAVLATLARNING TASHKIL TOPISHI (13 soat).

13-dars. Xalifalikning zaiflashuvi, mustaqil davlatlarning shakllana boshlashi.

Mahalliy hukumdorlarning mustaqil davlatchilikka intilishi. Qorluqlar, O‘g‘uzlar davlatlarining tashkil topishi.

14- dars. Somoniylar.

Tohiriylar va Somoniylar davlatlarining tashkil topishi, Ismoil Somoniy, davlat boshqaruv tizimi, islom dini rivoji.

15- dars. Somoniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Somoniylarning ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy ahvoli. Xo‘jalik hayoti. Ichki va tashqi savdo.

16-dars. IX-X asrlarda yer-mulk munosabatlari. Somoniylar sulolasining inqirozi. G‘aznaviylar davlati.

yer egaligining shakllari. Somoniylar davlatining inqirozi. G‘aznaviylar davlati. G‘aznaviylar davlatida ilm-fan.

17- dars. Qoraxoniylar davlati.

Qoraxoniylar davlatining movarounnahrda hujumi. Davlatning ikkiga bo‘linishi. Saljuqiylar davlati. Davlat boshqaruvi. Qoraxitoylarning Movarounnahrda hujumi.

18- dars. XI-XII asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

yer egaligi. "Iqto"ning kengayishi. Savdo-sotiq, hunarmandchilikning rivojlanishi.

Takrorlash.

19- dars. Xorazm davlati va uning yuksalishi.

Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi. Davlat hududining kengayishi. Ichki ziddiyatlarning kuchayishi.

20- dars. O‘rta Osiyolik mutafakkirlar. Ilm-fan ravnaqi.

“Bayt ul-hikma”. Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Abu Mansur Moturidiy, Abduxoliq G‘ijduvoni faoliyati.

21- dars. Movaunnahr va Xorazmning madaniy hayotida yangi davr (IX-XII asr boshlari).

IX-XIII asrlarda Movarounnahr va Xorazmda madaniy hayot. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy. Turkiy yozma adabiyotning vujudga kelishi va uning namoyandalari: Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy.

22- dars. Me'morchilik, san'at, musiqa va diniy e'tiqod.

Me'morchilik san'ati, musiqa, din va e'tiqod. Xattolik, naqqoshlik, o'ymakorlik. Din, tasavvuf, Ahmad Yassaviy. Najmiddin Kubro va boshqalar hamda ularning boy ma'naviy merosi.

23-mavzu. Etnik jarayonlar va o'zbek xalqining shakllanishi.

Etnik jarayonlar. O'zbek va tojiklarning xalq sifatida shakllanishi.

Takrorlash.

IV BOB. VATANIMIZ XALQLARINING MO'G'ULLAR ISTILOSINI VA ZULMIGA QARSHI OZODLIK KURASHLARI (6 soat).

24- dars. Xorazmshohlar davlati bilan mo'g'ullar davlati o'rtasidagi munosabatlar.

Chingizxon davlatining tashkil topishi. Mo'g'ullarning bosqinchilik yurishlari. Xorazmshohlar davlatining siyosiy ahvoli. O'zaro elchilik aloqalari. Xorazmshohlar davlatining inqirozga yuz tutishi sabablari.

25- dars. Chingizxon bosqini.

Xorazmshohlarning mudofaa rejaları. O'tror qamali, Buxoro fojiasi, Samarqand ostonasidagi janglar. Temur Malik.

26- dars. Xorazmshohlar davlatining halokati.

Urganch qamali. Jaloliddin Manguberdi va Najmiddin Kubro jasorati. Mo'g'ullar istilosining oqibatları.

27- dars. Chig'atoy ulusining tashkil topishi.

Mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Mo'g'ullarga qarshi xalq qo'zg'olonlari. Mahmud Tarobiy harakati. Chig'atoy ulusining tashkil topishi, undagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat.

28- dars. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning jonlanishi.

Mac'udbekning pul islohotlari. Kebekxon va uning islohotlari. Iqtisodiy hayotning jonlanishi. XIII-XIV asrlarda o'lkadagi madaniy hayot.

Takrorlash.

V BOB. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATI (17 soat).

29- dars. Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi.

XIV asrning o'rtalarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Mo'g'ul xoni To'g'luq Temurning Movarounnahrda yurishi.

30- dars.. Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi.

Samarqand sarbadorlari va Amir Temurning mamlakatni birlashtirish yo'lidagi harakatlari. Amir Temur saltanatining tashkil topishi, Sohibqiron Amir Temur -davlat arbobi, sarkarda.

31- dars. Amir Temurning harbiy yurishlari.

Amir Temurning "uch yillik", "besh yillik", "yetti yillik" yurishlari. Anqara jangi. Temurning jahon tarixida tutgan o'rni.

32- dars. Amir Temur saltanatining ma'muriy va harbiy tuzilishi.

Saltanat boshqaruvi. Amir Temur davlatining ma'muriy tuzilishi. Suyurg'ol yerlar. Harbiy islohotlar. "Temur tuzuklari".

33- dars. Mamlakat obodonchiligi yo'lida.

Shahar obodonchiligi. Hunarmandchilik, savdo. Samarqand – mamlakat poytaxti. Temur bog'lari. Amir Temur bunyodkorlik ishlarining homiysi.

34- dars. G'arbiy Yevropa davlatlari bilan aloqalari.

G'arbiy yevropa davlatlari bilan aloqalarning o'rnatilishi. Xalqaro siyosiy vaziyat. Elchilik aloqalarining yo'lga qo'yilishi.

35- dars. Amir Temur vorislari o'rtasida taxt uchun kurash va uning oqibatlari.

Taxt uchun kurash, Xalil Sulton, Shohrux Mirzo, Mironshoh, Pirmuhammad mirzolar o'rtasidagi kurash.

Takrorlash.

36- dars. Ulug'bek – ma'rifatparvar davlat arbobi.

Temuriylar davrida Movarounnaxr va Xuroson. Ulug'bekning hukmronligi. Ulug'bekning harbiy yurishlari. Ulug'bek fojeasi.

37- dars. Temuriylar saltanatining inqirozga yuz tutishi.

Siyosiy parokandalik. Temuriy shahzodalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash. Husayn va Alisher Navoiy faoliyati.

38- dars. Dehqonchilik, yer egaligi munosabatlari.

Temuriylar davrida ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar. Sug'orish va qishloq ho'jaligi. Agrar munosabatlar, soliq turlari.

39- dars. Hunarmandchilik va savdo aloqalari.

Hunarmandchilik, tashqi savdo, pul muomalasi. Binokorlik, yog'och o'ymakorligi.

40- dars. Ilm-fan ravnaqi.

Amir Temur - Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat homiysi. Ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti, Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi.

41- dars. Madaniy hayot.

Tasviriy san'at, kitob san'ati, adabiyot. Temuriylar madaniy merosining jahonshumul ahamiyati.

Xotima o'rnida.

Umumlashtiruvchi-takrorlash darsi.

Yakuniy dars.

**8 – SINF. JAHON TARIXI (YANGI DAVR 1500-1860)
(51 soat)**

Kirish (1soat).

"Yangi tarix" tushunchasi. Osiyoda yangi jamiyat shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Yangi davr tarixini davrlashtirish. Yangi tarixning birinchi va ikkinchi bosqichlari. Yangi tarixning asosiy manbalari.

**I BO'LIM. XVI-XVIII asrlarda yevropa, Amerika va Osiyo davlatlari
(22 soat).**

1-2-dars. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati (2 soat).

Texnikaning rivojlanishi: buyuk ixtirolar, metallurgiya va metallga ishlov berishning takomillashuvi, harbiy texnikaning rivojlanishi, uning oqibatlari. Kemasozlikning rivojlanishi. Kompas, usturlobning ixtiro qilinishi, dengiz sayyohatlari uchun qulayliklar. Buyuk geografik kashfiyotlarning sabablari: mehnat qurollarining takomillashuvi, turli tovarlar ishlab chiqarishning ko'payishi, savdo-sotiqning kuchayishi. Pul zarb qilinishga bo'lgan ehtiyoj. yevropada oltin, kumush ma'danlarining kamligi, boylik orttirishga bo'lgan intilish. yevropalik sayyohlarning dengiz sayohatlaridan maqsadlari.

yevropaliklarning Amerikani kashf qilishi. Xristofor Kolumb. Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi. Vasko da Gama sayohati, uning oqibatlari. Ameriko Vespuchi sayohatlari. Amerikaning materik ekanligining aniqlanishi. Beruniy ilmiy xulosalarining isbotlanishi. yevropa uchun geografik kashfiyotlarning oqibatlari.

3- dars. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi (1 soat).

Ispan, portugallarning talonchilik, bosqinchilik siyosatlari. Bosib olingan yerlarning mustamlakaga aylantirilishi. Meksika va Peruning bosib olinishi. Qul savdosi.

4-dars. Yangi davr boshlarida G'arbiy yevropa mamlakatlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1 soat).

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalar. Savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar.

5 - dars.Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi (1 soat).

XI-XIV asrlarda Chexiyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Katolik cherkovi va unga qarshi umumiy norozilik.

Germaniyaning siyosiy jihatdan tarqoqligi. Dehqonlarning katta yer egalariga qarshi kurashi. Germaniyada katolik cherkovi. Martin-Lyuterning chiqishi. Reformatsiya. Tomas Myunserning faoliyati, ritsarlar qo'zg'oloni.

Germaniyada dehqonlar urushining yengilish sabablari, uning oqibatlari. Reformatsiya natijalari. Germaniyada reformatsiya va dehqonlar urushining ahamiyati. Reformatsiyaning yevropaga yoyilishi. Katolik cherkovining reformatsiyaga qarshi kurashi. Iezuitlar ordeni. Varfolomey tuni, protestantlarning qirg'in qilinishi.

6-dars. Nazorat ishi-1.

7-dars. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi (1 soat).

Mutlaq monarxiya. XVI asrning Angliya tarixidagi o'rni. Kontrreformatsiya. Angliya yelizaveta I hukmronligi davrida. Dengiz hukmronligi uchun kurash.

6-mavzu. Fransiyada mutlaq monarxiya (1 soat).

Fransiyada agrar munosabatlar. Qirol hokimiyatining mustahkamlanishi. Dehqonlarning ahvoli. Manifaktura va savdoning rivojlanishi. Fransiyada burjuaziya va dvoryanlar, ularning daromad manbai. Rishelening mamlakatni idora qilishi. Lyudvik XIVning ichki va tashqi siyosati. Fransiyada mutlaq monarxiyaning kuchayishi, dehqonlar ahvoli.

7-mavzu. XVI-XVII asrlarda Rossiyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli (2 soat).

XVI-XVII asrlarda Rossiyadagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat. Dvoryanlarning kuchayishi. Rossiyaning tashqi siyosati. Volga bo'yi va G'arbiy Sibirning bosib olinishi. Qozon va Sharqiy Sibirning bosib olinishi. Astraxan xonligining bo'ysundirilishi. Livoniya urushi. Boltiq dengiziga chiqish uchun kurash. Xo'jalik va madaniyatning rivojlanishi. Dehqonlar urushining boshlanish sabablari. Rus xalqining polyak va shved bosqinchilariga qarshi kurashi. Moskvaning egallanishi. Kuzma Minin va Dmitriy Pojarskiy rahbarligida xalq harakati. Bosqinchilarning haydab chiqarilishi.

Barshchina xo'jaligi. Yangi iqtisodiy islohotlar. Manufakturaning vujudga kelishi. Shaharlar va savdo-sotiqning o'sishi. Butun Rossiya bozorining shakllanishi. Yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanish jarayoni.

8-mavzu. Niderlandiya burjua inqilobi. Milliy ozodlik kurashi (1 soat).

Niderlandiyaning iqtisodiy jihatdan yuksalish sabablari. Yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi. Niderlandiya Ispaniya hukmronligi ostida. Ispanlarga qarshi norozilikning kuchayishi. Xalq ommasining feodallar zulmiga va Ispaniya hukmronligiga qarshi kurashi. Inqilobning boshlanish sabablari va oqibati. Partizanlar urushi.

Mamlakat shimoli va janubidagi qo'zg'olonlar. Gollandiya burjua respublikasining tashkil topishi. Ispan bosqinchilariga qarshi kurash ko'rinishidagi burjua inqilobi va uning natijalari .

9-mavzu. yevropada Uyg'onish davri madaniyati (2 soat).

Uyg'onish davri madaniyatining yuksalish sabablari. Insonparvarlik g'oyalarning paydo bo'lishi. Tabiatga, insonga bo'lgan munosabat, feodal va cherkovga munosabat. Geografik bilimlarning kengayishi. Antik madaniyatga bo'lgan qiziqish. Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Italiya uyg'onish davrining san'ati va uning namoyandalari. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rafael. Italiya uyg'onish davri san'atining yevropa mamlakatlari san'atiga ta'siri.

Germaniya, Gollandiya, Ispaniyaning buyuk san'at ustalari, ularning san'at asarlarida hayotiy haqiqatlarning aks etishi. Albext Dyurer, Rembrant Van Reyn, Diego Velaskes ijodi.

Gumanist-insonparvar yozuvchilar: Tomas Mor, Shekspir, Servantes, Fransua Rable asarlarida insoniy his-tuyg'ular, insonparvarlik g'oyalari, feodal urushlar, uning oqibatlarining aks etishi.

10-dars. Ilm-fan taraqqiyoti (1 soat).

Tabiat fanlari sohasidagi buyuk yangiliklar. Fan va Cherkov o'rtasidagi munosabatlar. Fanning taraqqiyoti. Matematika, astronomiya, tibbiyot, tasviriy san'at, me'morchilik. Nikolay Kopernik, uning ta'limoti. Jordano Bruno, Galileo Galiley kashfiyotlari.

11-dars. XVII asrda Angliya burjua inqilobi. Sanoat to'ntarishining boshlanishi (2 soat).

Ingliz burjua inqilobining boshlanish sabablari. Angliyada sotsial-iqtisodiy sharoit. Feodal tartiblarning jamiyat taraqqiyotiga to'sqinligi. Inqilobning asosiy sabablari, inqilobning boshlanishi.

12-dars. Fuqarolar urushi va uning oqibatlari (1 soat).

Fuqarolar urushi. Oliver Kromvel. Armiyadagi islohot. Neyzbi jangi. Parlamentning mo'tadil burjua islohotlari. Agrar qonunlar. Armiya va parlament ixtiloflari. Levellerlar harakati, Karl 1 ning qatl etilishi. Respublikaning e'lon qilinishi. Ingliz burjua inqilobining xarakteri va tarixiy ahamiyati.

13-dars. Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi (1 soat).

Davlat tuzumi. Tashqi siyosat. Qishloq xo'jaligadagi o'zgarishlar. Sanoat. Sanoat inqilobi uchun shart-sharoitining yetilishi. Sanoat inqilobining yuz berishi va natijasi.

Umumlashtiruvchi dars (1 soat).

14-dars. XVIII asrlarda Shimoliy Amerika. Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi (1 soat).

Shimoliy Amerikaning tub aholisi bilan kelgindilar o'rtasidagi munosabat. T.Jefferson, J.Vashington faoliyati. «Mustaqillik deklaratsiyasi». AQShning tashkil topishi. AQSh Konstitutsiyasi, Mustaqillik uchun olib borilgan urushning natijalari, ahamiyati va saboqlari.

15-dars. Fransiya burjua inqilobi. Monarxiyaning tugashi (1 soat).

Fransiyada inqilobiy vaziyatning yuzaga kelish sabablari. Inqilobning boshlanishi. Yakobinchilarning hokimiyat tepasiga kelishi. Yakobinchilarning ichki siyosati. Yakobinchilar partiyasi. Direktoriya. 1799 yil 19 noyabrdagi davlat to‘ntarishi. Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyati.

16-dars. XVI-XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi (1 soat).

Iqtisodiy ahvol. Siyosiy tuzum. Germaniyaning xalqaro ahvoli. Prussiya qirolligining tashkil topishi.

17-dars. XVII asrning oxiri va XVIII asrning birinchi yarmida Rossiya (1 soat).

XVII asrning oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli, yevropa mamlakatlaridan orqada qolish sabablari, qoloqlikdan chiqish, uni bartaraf etish.

Pyotr I hukmronligi. Uning ichki va tashqi siyosati. Qora dengizni egallash uchun urinish.

II BOB. XVI-XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari (5 soat).

18- dars. XVI-XVIII asrlarda Hindiston (1 soat).

Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. Imperiyadagi ichki va tashqi siyosat. Imperiya Akbarshoh davrida. Avrangzeb hukmronligi davridagi o‘zgarishlar. Angliya va Hindiston munosabatlari.

19- dars. XVI-XVIII asrlarda Xitoy (1 soat).

XVI asrda Xitoydagi siyosiy hayot. Ichki siyosiy kurash. Manjurlar hukmronligi. Min sulolasining halokati. Bosqinchilik siyosati.

20-dars. XVI-XVIII asrlarda Yaponiya (1 soat).

XVI asrda Yaponiyadagi siyosiy ahvol. yevropaliklarning kirib kelishi. Yaponiyani birlashtirish uchun kurashning davom etishi. Yaponiyani birlashtirishning tugallanishi. O‘zini-o‘zi ajratib qo‘yish. Yosimune islohotlari.

21- dars. XVI-XVIII asrlarda Usmonli Turklar imperiyasi (1 soat).

Imperiyaning yuksalishi. yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi. Ichki va tashqi siyosat.

22- dars. XVI-XVIII asrlarda Eron (1 soat).

Safaviylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. Shoh Abbos I hukmronligi davri. Safaviylar davlatining barham topishi. Afg‘onlar istilosi. Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi. Xojarlar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi.

IKKINCHI BO‘LIM. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlari.

III BOB. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda yevropa davlatlari (10 soat).

23-dars. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda Buyuk Britaniya (2 soat).

XIX asrning boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Sanoatdagi o‘zgarishlarning yuksalishi. Angliyaning dunyo ustaxonasiga aylanishi. Angliyaning siyosiy o‘sishi va mustamlakachilik siyosati. Parlament islohoti. Tashqi siyosat. “Oq koloniyalar”.

24-dars. Fransiyada birinchi imperiya va uning halokati (1 soat).

XIX asrning boshlarida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Fransiyada birinchi imperiya. Istilochilik urushlari. Imperiyaning zaiflashuvi. Fransiya-Rossiya urushi. Imperiyaning qulashi. Burbonlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Vena kongressi. “Muqaddas ittifoq”.

25- dars. Fransiyada ikkinchi imperiyaning o‘rnatilishi (1 soat).

Iyul monarxiyasi. Iyul monarxiyasi inqirozi. 1848 yil inqilobi, sabablari va uning natijasi. Ikkinchi imperiya.

26-dars. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda Germaniya va Italiya (1 soat).

Germaniyada inqilobning sabablari va maqsadlari. Germaniyaning birlashuvi. Italiyaning birlashtirilishi.

27- dars. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda Rossiya (2 soat).

Iqtisodiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari. Samaderjavie va krepostnoylikka qarshi kurash. Nikolay I hukmronligi va boshqaruvi. Krepostnoy huquqining yemirilishi. Islohotlarning tarixiy ahamiyati. Tashqi siyosat .

28-dars. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda Amerika qo‘shma shtatlari (1 soat).

AQShning iqtisodiy taraqqiyoti. Plantatsiya xo‘jaligi. Abolitsionistlar. Quldorlar isyoni. Fuqarolar urushi. Fuqarolar urushining natijalari.

29- dars. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi (1 soat).

Mustaqillik uchun kurashning boshlanishi. Meksikada mustaqillik urushi. Venesuela mustaqilligi. Mustaqillik yo‘lidagi urushlarning tugashi.

Umumlashtiruvchi dars (1 soat).

IV BOB. XIX asrning 60-yillarining oxirida Osiyo va Afrika mamlakatlari (8 soat).

30- dars. XIX asrning 60-yillari oxirigacha bo‘lgan davrda Hindiston (1 soat).

Ingliz mustamlakachilik tartibi. Sipohiyalar qo‘zg‘oloni. Hind ziyolilarining faoliyati.

31- dars. XIX asrning 60-yillarining oxirida Xitoy (1 soat).

Sin imperiyasi qudratining zaiflashuvi. Birinchi “af‘yun urushi”. Ikkinchi “af‘yun urushi”. Dehqonlar urushi va taypinlar davlati. Taypinlar mag‘lubiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.

32- dars. XIX asrning 60-yillarining oxirida Yaponiya (1 soat).

Yaponiyaning kuch bilan “ochilishi”. “Ma‘rifatli boshqaruv” davrining boshlanishi. Meydzi islohotlarining boshlanishi. Iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlari.

33- dars. XIX asrning 60-yillarining oxirida Usmonli turklar imperiyasi (1 soat).

Davlat tuzumi. “Sharq masalasi”. Sharq masalasining keskinlashuvi. Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi.

34- dars. XVI-XIX asrning 60-yillarining oxirida Afg‘oniston (1 soat).

Mustaqillik uchun kurash. Afg‘oniston-Eron munosabatlari. Afg‘oniston davlatining tashkil topishi. Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Afg‘on-ingliz urushi. Afg‘oniston 1842-1870 yillarda xalqaro munosabatlarda.

35- dars. XIX asrning 60- yillarining oxirigacha bo‘lgan davrda Eron (1 soat).

Davlat tuzumi. Eronning xalqaro ahvoli. Eronning Buyuk Britaniya bozoriga aylanishi. Boburiylar qo‘zg‘oloni. Qo‘zg‘olonning yengilish sabablari. Eron-Buyuk Britaniya urushi.

36- dars. XIX asrning 60-yillarining oxirida Afrika xalqlari (1 soat).

Afrika qit'asining o'ziga xos xususiyatlari. Afrikaning bo'lib olinishi. Liberiya. Efiopiya. Janubiy Afrikaning mustamlakaga aylanishi. Fransiya mustamlakalari.

Umumlashtiruvchi dars (1 soat).

V BOB. yevropada XIX asrning 60-yillarining oxiridagi ijtimoiy harakatlar (1).

37-dars. yevropada XIX asrning 60-yillarining oxiridagi ijtimoiy harakatlar (1 soat).

G'arbiy yevropada ijtimoiy harakatlar. Utopik sotsialistlar. Rossiyada ijtimoiy harakat.

VI BOB. XVII-XIX asrlarning 60-yillari oxirigacha bo'lgan davrda ilm-fan, adabiyot va san'at (4 soat).

38-dars. Ilm-fan taraqqiyoti (1 soat).

Aniq fanlar daholari. Fanning boshqa sohalardagi kashfiyotlari. M.V. Lomonosovning ilm-fanga qo'shgan hissasi. Transport va aloqa tarmog'idagi o'zgarishlar.

39-dars. Adabiyot va san'at (1 soat).

Adabiyotning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchilar: Daniel Defo, J.Svift, P.Bomarshe, F.Shiller, Onore de Balzak, A.S.Pushkin. yevropaning mashhur musiqachilari.

Takrorlash (1-soat).

Yakunlovchi umumlashtiruvchi dars (1soat).

**8-SINF O'ZBEKISTON TARIXI
(51 soat)**

Kirish (1 soat).

O'rganiladigan davrning o'ziga xos xususiyatlari. Darslik matni bilan ishlash, baholash tartiblari. Kurs davomida o'quvchilarning egallashlari lozim bo'lgan bilimlar haqida.

I BOB. Movarounnahr shayboniylar hukmronligi davrida.

1- dars. XV asrning oxiri – XVI asrning boshlarida Turkistonda siyosiy vaziyat(1 soat).

Temuriylar davlatining inqirozi. Xuroson va Movarounnahrda siyosiy ahvol.

2-dars. Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat. Muhammad Shayboniyxon. (1 soat).

Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat. Abulxayrxon davlati. Aholining asosiy mashg'uloti. Muhammad Shayboniyxon.

3-dars. Movarounnahrda shayboniylar hukmronligining o'rnatilishi. (1 soat).

Shayboniyxon hukmronligining kuchayishi. Movarounnahrning bosib olinishi. Xorazm va Xuroson uchun kurash. Eron shohi Ismoil Safaviy bilan to'qnashuv.

4-dars. Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda. (1 soat).

Zahiriddin Muhammad Boburning hokimiyat tepasiga kelishi. Bobur va Shayboniyxon munosabatlari. Bobur davlat arbobi. Bobur - mohir sarkarda. Bobur - tarixchi olim.

5-dars. Buxoro xonligi. (1 soat).

Buxoro xonligining tashkil topishi. Kuchkinchixon va Ubaydullaxon hukmronligi. Buxoro Abdullaxon II hukmronligi davrida. Shayboniylar hukmronligining barham topishi.

6-dars. XVI asrlarda Buxoro xonligida ijtimoiy – iqtisodiy hayot. (1 soat).

Shayboniylar o‘tkazgan islohotlar. Iqtisodiy hayot. Davlat boshqaruvi. Ichki ziddiyatlar.

7-dars. Nazorat ishi-1. (1 soat).

8-dars. Buxoro xonligining tashqi siyosati. (1 soat).

Buxoro - Boburiylar davlati munosabatlari. Buxoro – Usmonli turklar munosabatlari. Buxoro va Eron munosabatlari. Buxoro – Rossiya munosabatlari.

9-dars. XVI asrda Buxoro xonligida madaniy hayot. (1 soat).

Madaniy hayot. Ilm fan, adabiyot, me'morchilik.

II BOB. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi

10-dars. Ashtarxoniylar davlatining tashkil topishi. (1 soat).

Ashtarxoniylarning hokimiyat tepasiga kelishi. O‘zaro ichki urushlar. Subxonqulixon hukmronligi. Davlatni boshqarish uchun kurash.

11-dars. XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida siyosiy parokandalikning kuchayishi va uning oqibatlari. (1 soat).

Buxoro xonligi Ubaydullaxon II davrida. Xonlikda parokandalikning kuchayishi va oqibati. Eron qo‘shinlarining bostirib kirishi.

12-dars. Ashtarxoniylar davrida ijtimoiy – iqtisodiy hayot. (1 soat).

Davlat boshqaruvi. Ijtimoiy iqtisodiy hayot. Qishloq xo‘jaligi. Xalq qo‘zg‘olonlari.

13-dars. Nazorat ishi-2. (1 soat).

14-dars. Takrorlash darsi(1 soat).

15-dars. Ilm – fan va madaniy hayot. (1 soat).

Maktab va madrasada o‘qish, tarixnavislik, adabiyot va san‘at, me'morchilik.

III BOB. Buxoro amirligi.

16- dars. Buxoroda mang‘itlar hukmronligining o‘rnatilishi. (1 soat).

Ashtarxoniylar inqirozi. Mang‘itlar sulolasi. Muhammad Rahimbiy. Amir Shohmurod.

17- dars. Amirlikning davlat tuzumi va ma'muriy boshqaruvi. (1 soat).

Amirlikning hududi. Davlat tuzumi. Mamlakatning ma'muriy bo‘linishi. Davlat lavozimlari.

18- dars. Amirlikning qishloq xo‘jaligi. (1 soat).

Amirlikning xo‘jaligi. yer egaligi shakllari. Soliq va majburiyatlar. Sug‘orish inshootlari.

19- dars. Amirlikda shaharlar hayoti va savdo-sotiq ishlari. (1 soat).

Ijtimoiy va iqtisodiy hayot. Ichki va tashqi savdo. Shaharlar hayoti. Samarqand. Buxoro. Hunarmandchilik.

20- dars. Buxoro amirligi XIX asr birinchi yarmida. (1 soat).

Buxoro amirligi Amir Haydar hukmronligi davrida. Amir Nasrullo hukmronligi. Amir Nasrulloning harbiy islohotlari. Ichki siyosat.

21- dars. Buxoro amirligida madaniy hayot. (1 soat).

Tarix ilmi, adabiyot, san'at, musiqaning rivojlanishi.

IV BOB. XVI-XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi.

22- dars. Xiva xonligining tashkil topishi. (1 soat).

Xiva xonligining tashkil topishi. Ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy hayot. XVI asrda Xiva-Buxoro munosabatlari.

23- dars. Nazorat ishi-3. (1 soat).

24- dars. XVII- XVIII asrning birinchi yarmida xonlikdagi siyosiy ahvol. (1 soat).

Siyosiy parokandalik. Abulg'ozzi Bahodirxon. Inoqlar. Xiva – Buxoro munosabatlari. Xiva xonligida chet davlatlar manfaatlarining to'qnashuvi. Eron shohi Nodirshoh bosqiniga qarshi kurash.

25- dars. Xiva xonligida iqtisodiy va madaniy hayot. (1 soat).

Shahar va shaharliklarning turmush tarzi. Ko'hna Urganch, Vazir shahri, Hunarmandchilik va chorvachilik. Ichki-va tashqi savdo, ilm-fan.

V BOB. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi.

26- dars. Xiva xonligiga qo'ng'irotlar sulolasining kelishi. (1 soat).

XVIII asr ohiri- XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi. Qo'ng'irotlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi.

27- dars. Xiva xonligining tashqi siyosati. (1 soat).

Rossiya-Xiva munosabatlari. Muravyov ekspeditsiyasi. Sialkovskiy va Perovskiy ekspeditsiyalari. Majburiyatlar akti.

28- dars. Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot. (1 soat).

Xonlikda iqtisodiy va ijtimoiy hayot. Xonlikning aholisi. Mamlakatning ma'muriy boshqaruv tizimi. yer egaligi. Soliq va majburiyatlar.

29- dars. Xiva xonligi shaharlari hayoti. (1 soat).

Xiva xonligi shaharlari. Shaharlardagi turmush. Me'morchilik, Ichanqal'a, Dishanqal'a, hunarmandchilik.

30- dars. Xiva xonligi tarixini o'rganish manbalari. (1 soat).

Arxiv hujjatlari, xonlik tarixchilarining Xiva xonligi tarixiga oid asarlari. Rus tarixchilarining xonlik tarixiga oid asarlari. yevropa sayohatchilari tomonidan yozib qoldirilgan asarlar. O'zbekiston tarixchilarining xonlik tarixiga oid asarlari.

VI BOB. XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar

31-dars. Qoraqalpoq xalqining tashkil topishi va siyosiy hayoti. (1 soat).

Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Qoraqalpoq xonligining tashkil topishi. Qoraqalpoqlarning Rossiya bilan munosabati. Qoraqalpoqlarning Xiva bilan munosabatlari.

32-dars. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi. (1 soat).

Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olon. Qoraqalpoqlar hayoti va madaniyati. Hunarmandchilik.

33-dars. Qoraqalpoqlar madaniyati. (1 soat).

Xalq turmushi. Shaharlar. Folklor.

34-dars. Nazorat ishi-4. (1 soat).

35-dars. XVIII-XIX asrlarda qoraqalpoq adabiyotining rivojlanishi. (1 soat).

Yozma adabiyot. Berdaq, Ajiniyoz.

VII BOB. XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi.

36-dars. Qo'qon xonligining tashkil topishi. (1 soat).

Shohruxbiy – xonlik asoschisi. Xonlikning tashkil topishi. Davlat tuzilishi va ma'muriy boshqaruvi. Olimxon hukmronligi davri.

37-dars. XVII asrning birinchi yarmi – XIX asr boshlarida Toshkent. (1 soat).

Toshkent bekligi. Beklikning kuchayishi. Toshkent-Rossiya aloqalari. Toshkentning Qo'qon xonligiga qo'shib olinishi.

38-dars. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol. (1 soat).

Ijtimoiy-siyosiy ahvol. Umarxon va Muhammad Alixon. Qo'qon-Buxoro munosabatlari, Nasrulloxon istilosi. Xonlikdagi ichki nizolarning kuchayishi.

39-dars. Qo'qon xonligining iqtisodiy hayoti. (1 soat).

yer egaligi, soliqlar va majburiyatlar. Hunarmandchilik va savdo.

40-dars. Qo'qon xonligi shaharlari. (1 soat).

Shaharlar hayoti. Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent.

41- dars. Qo'qon xonligida madaniy hayot. (1 soat).

Umarxon va madaniy muhitning shakllanishi. Maxmur va Gulxaniy. Uvaysiy, Nodira, Mashrab.

42-dars. Nazorat ishi-5(1 soat).

43-dars. Takrorlash. (1 soat).

44- dars. Tarixnavislik, san'at va me'morchilik. (1 soat).

Tarixnavislik, "Tarixi jadidi Toshkand". San'at, me'morchilik, madrasalarning bunyod etilishi.

VIII BOB. O'rta Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari

45- dars. XVI-XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar. (1 soat).

Buxoro-Hindiston munosabatlari. Xuroson manfaatlar to'qnashuvi maydoni. O'rta Osiyo davlatlarining Afg'oniston, Eron va Xitoy bilan munosabatlari.

46- dars. O‘zbek xonliklarining Rossiya bilan munosabatlari. (1 soat).

O‘rta Osiyo va Rossiya. Antoniy Jenkinsonning O‘rta Osiyoga kelishi. O‘rta Osiyo davlatlarining Rossiya bilan munosabatlari. Petr I ning maqsadlari. Cherkasskiyning harbiy yurishi.

47-dars. XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo masalasida Buyuk Britaniya-Rossiya raqobati. (1 soat).

Mintaqada Angliya-Rossiya raqobatchiligi. Raqobat sabablari. Ingliz ekspeditsiyalari. O‘rta Osiyo davlatlari va Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi.

48-dars. O‘zbek xonliklarining taraqqiyotdan orqada qolish sabablari va uning oqibatlari. (1 soat).

Dunyo taraqqiyotidagi o‘zgarishlar, ortda qolish sabablari va oqibatlari.

49-dars. Nazorat ishi-6(1 soat).

50-dars. Yakuniy umumlashtirish. (1 soat).

**9-SINF. JAHON TARIXI (YANGI DAVR, 1870-1918 YILLAR)
(51 soat)**

Jahon tarixi yangi davrini (1870-1918 yillar) o‘qitish va o‘rganishning ta’limiy maqsadi XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida insoniyat jamiyati taraqqiyotining eng muhim bosqichlari, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, shuningdek, dunyo davlatlarining o‘zaro munosabatlari va ichki ziddiyatlar haqida o‘quvchilarga bilim berishdir.

Tarbiyaviy maqsadi esa olingan bilimlar natijasida, o‘z hayotining kelajagini belgilash, o‘z Vatanini boshqa rivojlangan davlatlar qatoriga chiqarish uchun halol mehnat qilish, umuminsoniy qadriyatlarni, o‘z madaniyati va boshqa xalqlar madaniyatini hurmat qiladigan ma’naviy yetuk yoshlarni kamolga yetkazishga hissa qo‘shishdan iboratdir. Ushbu fanning vazifasi o‘quvchilarga XIX asrning oxiri XX asr boshlarida jahondagi geopolitik o‘zgarishlarni singdirish va olingan bilimlar asosida bugungi kundagi dolzarb masalalarni yechishga yo‘l topish, eng muhim xulosalardan mamlakat manfaati uchun foydalana bilish, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini o‘stirish, davr talabi bo‘yicha dunyoqarashini shakllantirish, o‘z yurtiga sadoqat hissini tarkib toptirish, umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qiladigan ma’naviy yetuk shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

BIRINCHI BO‘LIM. JAHON XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA

1-dars. Kirish. Jahon XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida kapitalizm taraqqiyotida yuz bergan tub o‘zgarishlar. (1 soat)

2-dars. Industrial sivilizatsiya. (1soat)

Yangi tarix birinchi davrning asosiy xususiyatlari va bu davrda jamiyat taraqqiyotining umumiy yakunlari. 1870-1918 yillarda sanoat ishlab chiqarishining o‘sishi va xususiyatlari. Jamiyat taraqqiyotidagi notekislik. Ishlab chiqarish sohasida monopoliyalarning vujudga kelishi va millatlararo korporatsiyalarning tuzilishi. Siyosiy demokratiya, yuqori tabaqalarning hukmronlik shakli. Ulug‘ davlatlarning mustamlakachilik tuzumi va dunyoni bo‘lib olishning tugallanishi.

Industrial sivilizatsiya haqida, eski va yangi aristokratiya.

IKKINCHI BO‘LIM. YEVROPA VA AMERIKA DAVLATLARI

3-dars. Fransiya-Prussiya urushi va uning yakunlari (1 soat).

Fransiya-Prussiya urushining sabablari. Urush harakatlarining borishi. Imperiyaning halokati.

4-dars. Fransiya Uchinchi Respublika va 1871-yil 18-mart davlat to'ntarishi. (1 soat).

1870 yil 4- sentabr inqilobi. 1871 yil 18 martdagi inqilobning yetilishi. Parijning taslim bo'lishi. Frankfurt sulhi.

5-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Fransiya iqtisodiy va siyosiy hayot. (1 soat).

XIX asrning oxirida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti. Hokimiyat uchun kurash. 1875 yil Konstitutsiyasi. Uchinchi Respublikaning inqirozi.

6-dars. Fransiyaning ichki siyosati. (1 soat).

Fransiyaning ichki siyosati. Siyosiy ahvol. Iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar. Ijtimoiy harakat.

7-dars. Fransiyaning tashqi siyosati. (1 soat).

Mamlakatning xalqaro ahvoli. Mustamlakachilik imperiyasining yaratilishi. Buyuk Britaniya bilan yaqinlashuv. Rossiya bilan yaqinlashuv.

8-dars. Nazorat ishi-1 (1 soat).

9-dars. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Germaniya. Imperiyaning tashkil topishi. (1 soat).

Germaniyani birlashtirishning tugallanishi. 1871 yilgi imperiya konstitutsiyasi. Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti.

10-dars. Germaniyaning ichki siyosati. (1 soat).

XIX asrning oxirida Germaniyaning ichki siyosati. Qishloq xo'jaligidagi ahvol. Mehnatkashlar manfaati uchun kurash.

11-dars. Germaniyaning tashqi siyosati. (1 soat).

Dunyoni qayta bo'lishga da'vogarlik. Germaniyaning mustamlakachilik siyosati. Germaniya – Turkiya munosabatlari.

12-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli. (1 soat).

Mamlakat siyosiy tuzumi. Iqtisodiy taraqqiyoti va uning orqada qolishi.

13-dars. Buyuk Britaniyaning ichki siyosati. (1 soat).

Irlandiya masalasi. Ijtimoiy harakatning kuchayishi. Tred-yunionlar. XX asr boshlarida Buyuk Britaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Yollanma ishchilar ahvoli.

14-dars. Buyuk Britaniyaning tashqi siyosati. (1 soat).

Buyuk Britaniyaning mustamlakachilik siyosati. Buyuk Britaniya va podsho Rossiyasi. Afrikadagi mustamlakalar. Xalqaro ahvol.

15-dars. Nazorat ishi-2. (1 soat).

16-dars. AQSh XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida (1 soat).

XIX asrning oxirida AQShning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishi. Janubdagi o'zgarishlar. G'arbga siljish. Sanoatning yangi bosqichga ko'tarilishi. Qishloq xo'jaligida kapitalizm taraqqiyotining «amerikacha yo'li». Yollanma ishchilar ahvoli.

17-dars. AQSHning ichki siyosati. (1 soat).

XX asr boshlarida AQShning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. T.Ruzvelt va Makkinlining ichki va tashqi siyosati. AQShda ijtimoiy harakat.Qora tanlilarning ahvoli. Hindular ahvoli.

18-dars. AQSHning tashqi siyosati. (1 soat).

AQShning Lotin Amerikasidagi siyosati. Panama kanali. Panamerika ittifoqi. «Dollar diplomatiyasi», «Yo‘g‘on kaltak» siyosati. «Ochiq eshiklar» va «Teng imkoniyatlar» doktrinasi. Vilson hukumatining ichki va tashqi siyosati.

19-dars. Lotin Amerikasi mamlakatlari XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida (1 soat).

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Lotin Amerikasi xalqlari. Kubaning mustaqillik uchun kurashi. Meksikada Dias diktaturasi. 1910-yilgi prezidentlik saylovi. Uerta diktaturasi. Meksika inqilobi.

20-dars. Lotin Amerikasining boshqa davlatlari. (1 soat).

Braziliyada qulchilikning bekor qilinishi. Respublika e‘lon qilinishi. Argentinadagi ahvol. Markaziy Amerika davlatlari.

21-dars. Rossiya XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida (1 soat).

XIX asrning oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti. Ishchilar ahvoli. Ichki bozorning o‘sishi. 1870-1890 yillarda sanoatning o‘sishi.

22-dars. Podsho Rossiyasining tashqi siyosati. (1 soat).

Podsho Rossiyasi mustamlakachi davlat. XIX asrning ohirida Rossiya tashqi siyosati. Rossiya-Turkiya urushi. San-Stefano shartnomasi. Berlin kongressi. Angliya-Rossiya qarama-qarshiliklari va O‘rta Osiyo masalasi. yevropada harbiy bloklarning tuzilishi. Uzoq Sharq inqirozi va Rossiyaning tutgan siyosati. Rossiyaning bosib olingan milliy o‘lkalardagi siyosati. Rus-yapon urushi va uning yakunlari.

23-dars. Rossiyada Davlat dumasining tashkil etilishi. (1 soat).

Ijtimoiy harakat. 1905 yilgi inqilobining boshlanishi. Davlat dumasi. Saylov to‘g‘risidagi yangi qonun.

24-dars. Nazorat ishi-3. (1 soat).

25-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Avstriya-Vengriya. (1 soat).

Siyosiy tuzum. Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti. Ijtimoiy harakat. Milliy ozodlik harakati. Iqtisodiy inqiroz.

26-dars. Avstriya-Vengriya imperiyasining tashqi siyosati. (1 soat).

Tashqi siyosati. Bolqondagi agressiv harakat. Germaniya bilan munosabat. Ijtimoiy harakat. Avstriya-Vengriyaning urushga tayyorgarlik ko‘rishi.

27-dars. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Italiya. (1 soat).

Italiyaning siyosiy tuzumi. Iqtisodiy ahvol. Ijtimoiy harakat. Italiyaning tashqi siyosati.

28-dars. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Bolqon davlatlari. (1 soat).

Bolqon davlatlarining Turkiya tomonidan ezilishi. Iqtisodiy taraqqiyot. Bolqonda milliy ozodlik harakatining o‘sishi. Bolgariyaning qayta tiklanishi. Serbiyaning ozod qilinishi. Ruminiya, Chernogoriya va Albaniyaning ahvoli.

UCHINCHI BO'LIM. OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

29-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya (1 soat).

XIX asrning oxirida Yaponiyada bozor iqtisodiyotining rivojlanishi. Yaponiyani industrilashtirishning xarakteri va xususiyatlari. Sanoatning rivojlantirishda davlatning roli. 1889-yil Konstitutsiyasi. Xalq ommasining ahvoli. Yaponiyaning tashqi siyosati. Koreya va Xitoyga qarshi agressiv siyosat. 1894-1895 yillardagi Yaponiya-Xitoy urushi.

XX asr boshlarida Yaponiya. Yaponiya taraqqiyotining xarakteri. Siyosiy reaksiyaning kuchayishi. Yaponiyaning tashqi siyosati. Rus – yapon urushi. Koreyaning anneksiya qilinishi.

30-dars. Nazorat ishi-4. (1 soat).

31-dars. XIX asrning oxirida Xitoy (1 soat)

XIX asrning oxirida Xitoyning yarim mustamlakaga aylanishi va ixetuanlar qo'zg'oloni. Xitoyda sanoat taraqqiyotining boshlanishi va uning xususiyatlari. Xalq harakatlari. Xitoyga qarshi tashqi agressiyaning kuchayishi. Xitoyning ta'sir doiralarga bo'linishi. AQShning Xitoydagi siyosati va Xey doktrinasi. Ixetuanlar qo'zg'oloni. Sakkiz davlatning Xitoyga qarshi intervensiyasi. XX asr boshlarida Xitoy. XX asr boshida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Sun Yatsenning faoliyati. Inqilobiy harakatning boshlanishi. Muvaqqat respublika hukumatining tuzilishi. Sun Yatsenning prezident qilib saylanishi. Yirik va qudratli davlatlarning Xitoyga munosabati.

32-dars. XX asr boshlarida Xitoyning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. (1 soat).

Iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli. Sun Yat Sen. Muvaqqat Respublika hukumatining tuzilishi. Yuan Shikay diktaturasi.

33-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Hindiston (2soat).

XIX asrning oxirida mustamlakachilik zulmi va Hindiston xalqlarining ozodlik kurashi. Sanoat kapitalizmining paydo bo'lishi.

Milliy harakatning kuchayishi. «Hindiston milliy kongressi» partiyasining tuzilishi. Tilak va uning inqilobiy faoliyati.

XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Bengaliyaning bo'linishi. Inqilobiy harakatning boshlanishi. «Svaraj» va «Svadeshi» shiorlari. Tilakning sud qilinishi. Bombeydagi umumiy ish tashlash. 1900-1908 yillardagi inqilobning mag'lubiyati. Birinchi jahon urushi arafasida Hindiston.

35-36-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Eron. (2 soat).

Eronning yarim mustamlakaga aylanishi. Mamlakatning Angliya va Rossiyaga qaramligining kuchayishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi. Milliy harakatning paydo bo'lishi. Ishchilar tabaqasining tashkil topishi. Chet elliklarga qarshi xalq ommasining chiqishlari. 1905-1911 yillardagi Eron inqilobi. Inqilobning boshlanishi va birinchi davridagi xalq harakatlari. Inqilobning ikkinchi davri. Konstitutsiya. 1907 yilgi Angliya-Rossiya bitimi. Janubdagi qo'zg'olonlar. Shohning taxtdan voz kechishi. Buyuk davlatlarning Erondagi siyosati. 1905-1911 yillardagi Eron inqilobining yengilishi va tarixiy ahamiyati.

37-dars. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Afg'oniston. (1 soat).

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Afg'oniston. Ikkinchi ingliz-afg'on urushi va uning oqibatlari. Abdurahmonning hokimiyatga kelishi va uning ichki hamda tashqi siyosati. Dyurantda bitim. Habibulloxon davrida Afg'onistonning ichki va tashqi siyosati. Muhammad Tarziyning ma'rifatchilik faoliyati.

38-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiya (1 soat).

XIX asrning oxirida Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi. XIX asrning oxirlarida Usmoniylar imperiyasining inqirozi va milliy zulmning avj olishi. Bolqon xalqlarining turklarga qarshi kurashi. 1876 yilgi Konstitutsiya. Konsessiyalar. Bag‘dod temir yo‘li. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va burjua milliy harakatining tug‘ilishi. «Birlik va taraqqiyot» partiyasining tuzilishi. 1908 yilgi «Yosh turklar» inqilobi. Inqilobiy vaziyatning vujudga kelishi, inqilobning boshlanishi va borishi. Konstitutsiyaning tiklanishi. 1909 yilgi aksil inqilobiy isyon. Buyuk davlatlarning Turkiya inqilobiga munosabati.

39-dars. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Afrika mamlakatlari (1 soat).

XX asrning oxiri va XX asr boshlarida arab mamlakatlari. Bu davrda arab mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Sudan va Liviyaning yarim mustamlakaga aylantirilishi. Arabistonda Angliya ta'sirining kuchayishi. Misrning asoratga solinishi. Misrda A.Orabibiy boshchiligidagi ozodlik harakati.

Mahdiylar qo‘zg‘oloni va Sudanning Angliya tomonidan egallanishi. Liviyaning Italiya tomonidan bosib olinishi. Fransiyaning Tunisni egallashi. Jazoyir-Fransiya hukmronligi ostida. Marokashning fransuzlar tomonidan egallanishi. Marokashdagi qo‘zg‘olon.

40-dars. Tropik va Janubiy Afrika mamlakatlari. (1 soat).

Tropik va Janubiy Afrikada mustamlakachilik kompaniyasining kuchayishi. G‘arbiy Afrika va Angliyaning mustamlakachilik siyosati. G‘arbiy Afrikada Germaniya ekspansiyasi. Samore Ture. Markaziy Afrikada Belgiyaning mustamlakachiligi. Sharqiy Afrikaning rivojlangan davlatlar tomonidan bo‘lib olinishi. Angliya-burlar urushi va Janubiy Afrika ittifoqining tuzilishi. Madagaskarning fransuzlar tomonidan egallanishi. Zuluslarning Ketchvayo boshchiligidagi ozodlik urushi. Namalar qo‘zg‘oloni. Xendrik Vitboy.

41-dars. Takrorlash (1 soat).

42-dars. Nazorat ishi-5(1 soat).

43-dars. 1914-1918 yillardagi birinchi jahon urushining boshlanishi va uning borishi. (1 soat).

Jahon urushining boshlanishi va sabablari. 1914-1915 yillardagi urush harakatlari. Dunyoni qaytadan bo‘lib olish uchun kurashning kuchayishi. Urush yillarida davlatlar o‘rtasida o‘zaro ziddiyatlarning kuchayishi va urushning xarakteri. Germaniyaning strategik rejasi. 1914 yil G‘arbiy frontdagi urush harakatlari. Marnadagi, Galitsiyadagi janglar. «Yashin tezligida» urush rejasining barbod bo‘lishi. G‘arbiy frontda pozitsion urushga o‘tilishi. Italiya va Bolgariyaning urushga kirishi. 1915 yil Sharqiy frontda va dengizdagi urush harakatlari. Birinchi jahon urushida sharq mamlakatlarining ishtiroki.

44-dars. 1916-1917 yillardagi urush harakatlari. (1 soat).

Nemis qo‘shinlarining G‘arbiy frontdagi 1916 yilgi hujumi. Verden jangi. Italiyaning og‘ir ahvolga tushishi. Ruslarning hujumi. Ruminiyaning urushga kirishi. Antanta davlatlarining g‘arbiy frontdagi muvaffaqiyatsizliklari. Dunyoni qaytadan bo‘lib olish uchun maxfiy bitimlar. 1917-1918 yillardagi urush harakatlari. AQShning urushga kirishi.

45-dars. Birinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari. (1 soat).

Urushayotgan davlatlar ahvoli. Rossiyaning urushdan chiqishi. Kompen yarash bitimi. Urushning so‘ngi bosqichi.

TO‘RTINCHI BO‘LIM. FAN VA MADANIYAT

46-dars. Moddiy ishlab chiqarishda texnika va fan taraqqiyoti (1 soat).

Buyuk kashfiyotlar. Moddiy ishlab chiqarishda texnika taraqqiyoti. Transport va temir yo‘llar. K.Daymler. Elektrdan foydalanish. T.Edison. Kemasozlik. Binokorlikda metall va oynadan foydalanish.

Metallurgiya, mashinasozlik. Tomson. Neftni qayta ishlash, ichki yonuv dvigatellari, R.Dizel, samolyotsozlik. A.Mojayskiy. energetika, radio telefon, A.Popov, A.Bell, harbiy texnika - A.Nobel.

47-dars. Aniq va tabiiy fanlar rivoji. (1 soat).

Matematika va tabiiy fanlar rivoji. Mexanika, N.Jukovskiy, M.Faradiy, A.Eneshteyn, E.Rezerford. Tarix, kimyo, D.Mendeleev, biologiya, Ch.Darvin, tibbiyot, V.Rentgen.

48-dars.Xalq ta’limi. Gumanitar fanlar.San’at. (1 soat).

Xalq ta’limi. Tarix va gumanitar fanlar –Bisher Stou. Falsafa va mustamlakachilik g’oyalari. Musiqa.

49-dars.Adabiyot. (1 soat).

Tanqidiy realism. Demokratik adabiyot. Naturalizm.

50-dars. Nazorat ishi-6. (1 soat).

51-dars. Yakuniy takrorlash (1 soat).

**9-SINF O‘ZBEKISTON TARIXI
(51 soat)**

Kirish (1 soat)

Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. O‘rganiladigan davrning o‘ziga xos xususiyatlari. Vatan jonajon yurt va qadrdon zamin, eng muqaddas bebaho boylikdir.

**I BO‘LIM. XIX ASR O‘RTALARIDA O‘ZBEK XONLIKLARINING SIYOSIY-IQTISODIY VA
MADANIY HAYOTI (4 soat).**

1- dars. O‘rta Osiyo davlatlarining hududi va aholisi (1 soat).

O‘rta Osiyo davlatlarining hududi. Xiva va Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining hududiy chegaralari. O‘rta Osiyo davlatlarining aholisi (Aholisi asosan, o‘zbeklar bo‘lib, shu bilan birga tojiklar, qoraqalpoqlar, qirg‘izlar, qozoqlar, turkmanlar ham bo‘lgan).

2- dars. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ma'muriy boshqaruv tizimi (1 soat).

Buxoro amirligining davlat boshqaruvi. Amirlikni mang‘itlar sulolasiga mansub hukmdorlar. Amirlikda ijro hokimiyati.

Xiva xonligi qo‘ng‘irotlar sulolasi tomonidan boshqarilishi. Xonlikda oliy amaldorlari - devonbegi, qo‘shbegi, mehtar, otaliq.

Qo‘qon xonligining minglar sulolasi tomonidan boshqarilishi. Amir lashkar. Mehtar, qozikalon, qozilar, muftiy, rais, mirshab.

3-dars. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1 soat).

yer egaligi va soliq tizimi. XIX asrda O‘rta Osiyo xonliklari - agrar davlatlar. Katta yer egalari, dehqonlarning yer egalari qo‘lida ishlashi. Sug‘orish tizimi va tartiblari. Amudaryo, Sirdaryo suvlari kanallar qazib, to‘g‘onlar qurilib ekin maydonlariga yetkazilgan. Hunarmandchilik va savdo-sotiq. O‘rta Osiyo savdogarlari Eron, Xitoy, Hindiston, Afg‘oniston, Rossiya davlatlari va qozoq juzlari bilan savdo-sotiq qilganlar.

4-dars. XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti (1 soat).

Xalq ijodiyoti. Xalq ijodiyoti: baxshilar, qiziqchilar, hofizlar, askiyachilar; Munis (1778-1829), Ogahiy (1809-1874) Ahmad Donish (1827-1897); Fazliy-«Majmuat ush-shuaro». Rahmonqul Inoq

saroyi, Muhammad Aminxon madrasasi, Muhammad Rahimxon madrasasi. Xudoyorxon saroyi, Xazrati Kalon Sohib, Sulton Murodbek madrasasi. Hazrati Imom majmuasi, Tillashayx Jome' masjidi.

II BO'LIM. ROSSIYA IMPERIYASINING O'RTA OSIYONI BOSIB OLISHI (8 soat).

5-dars. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi (1 soat).

Bosib olish uchun tayyorgarlik. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish uchun istilochilik harakatlarining boshlanishi. Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish uchun O'rta Osiyoga M.Murkroft, A.Byorns, I.Volf, J.Ebbotlar yuborildi. O'rta Osiyoni bosib olish uchun harbiy istilochilik yurish bosqichlari. Toshkentning bosib olinishi. Amirlashkar Alimqul. Toshkentning qozikaloni Hakimho'ja, Abdurahmon eshon, Solihbek oxun.

6-dars. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi (1 soat).

Turkiston o'lkasida mustamlaka boshqaruvining o'rnatilishi. 1867 yilda markazi Toshkent shahri bo'lgan Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tashkil qilindi. 1867 yil 7 noyabrda general-adyutant K. P. fon Kaufman general-gubernator etib tayinlandi. Yangi ma'muriy hududlarning tashkil qilinishi. 1867 yilgi «Nizom» loyihasi.

1-NI (1 soat)

7-dars. Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishi (1 soat).

Buxoro amirligi bosib olinishining boshlanishi. F.Romanovskiy Buxoro amirligiga qarshi urushga tayyorlanishi. 1866 yil 8 mayda Erjar jangi. O'ratepa va Jizzax uchun janglar. 1864-1866 yillar davomida bosib olingan hududlarni o'z ichiga oluvchi Sirdaryo viloyatining tashkil qilinishi.

8-dars. Buxoro amirligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi (1 soat).

Samarqand uchun jang. Zirabuloq tepaligida jang. Samarqandda Kitob hokimi Bobobek va Shahrizabz hokimi Jo'rabek boshchiligida vatanparvarlik kurashi. Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylantirilishi. Podsho hukumati tomonidan yangi bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon okrugining tuzilishi. Abdumalik to'ra faoliyati. 1873 yildagi shartnoma.

9-dars. Xiva xonligi ustidan Rossiya imperiyasi protektoratining o'rnatilishi (1 soat).

Xiva xonligiga qarshi Kaufman boshchiligida harbiy yurishlarning boshlanishi. Mang'ishloq, Orenburg, Turkiston va Krasnovodsk okruglarining yurishda ishtirok etishi. 1873 yil 12 avgustda imzolashgan Gandimiyon shartnomasi. Xiva xonligi 2 million 200 ming rubl miqdorida tovon to'lanishi.

10-dars. Qo'qon xonligining bosib olinishi (1 soat).

Qo'qon xonligidagi ichki siyosiy nizolarning kuchayishi. XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida ko'plab qo'zg'olonlar. Po'latxon rahbarligidagi qo'zg'olon. Andijonga uyushtirilgan hujum. Namanganning bosib olinishi. 1876 yil 18 fevralda Qo'qon xonligining tugatilganligi to'g'risidagi farmon e'lon qilinishi va Qo'qon xonligi hududi o'rnida Farg'ona viloyatining tashkil qilinishi. Turkmanlarning bo'ysundirilishi. Mag'lubiyat sabablari va oqibatlari.

Umumlashtirish darsi (1 soat).

III BO'LIM. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI (6 soat)

11-dars. Turkiston general-gubernatorligining siyosiy-ma'muriy boshqaruv tizimi (1 soat).

Boshqaruvning mustamlakachilik tartiblari. 1865 yil 6 avgustdagi Aleksandr II «Turkiston viloyatini idora qilish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom». Viloyatlar uezdlarga, uezdlar uchastkalarga bo'lindi. Boshqaruv tartiblarining mustamlakachilik xususiyatlari. Turkiston o'lkasining ma'muriy

hududiy bo‘linishi va boshqaruvi. 1886 yil 12 iyulda imperator Aleksandr III tomonidan yangi «Turkiston o‘lkasini idora qilish to‘g‘risidagi Nizom»ning tasdiqlanishi.

12-dars. Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasining yer-suv siyosati (1 soat).

Qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar. 1886 yilgi «Nizom»da «Turkiston o‘lkasining yer tuzilishi». Nizom bo‘yicha o‘lkada yirik yer egaligi ham tugatildi. Rossiyaning O‘rta Osiyoda ko‘chirish siyosati. 1875 yilda Avliyootada Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi paydo bo‘ldi. Toshkent shahri va o‘lkaning boshqa Yangi Marg‘ilon, Samarqand, Andijon kabi shaharlarida ko‘chib kelganlarning posyolkalari paydo bo‘ldi.

13-dars. Turkistonda sud tizimining tashkil etilishi (1 soat).

Sudlov tizimining mustamlaka manfaatlariga moslashtirilishi. Sud organlarining faoliyati. General-gubernator prokuror va oliy sud vazifasini ham bajargan. XIX asrning oxirida sudlov jarayonidagi o‘zgarishlar. 1898 yilda Toshkent sud palatasi tuzildi.

II - NI (1 soat).

14-dars. Turkistonda harbiy-politsiya tartibotining o‘rnatilishi (1 soat).

Mustamlaka tartibotini kuchaytirish yo‘llari. O‘rta Osiyoga temir yo‘llarning o‘tkazilishi. O‘lkada harbiy politsiya tartiboti. 1881 yilgi «Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo‘riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Nizom». 1892 yildan boshlab 1916 yilga qadar Turkiston «kuchaytirilgan qo‘riqlov». Mahalliy aholi armiyada xizmat qilishdan ozod etildi.

15-dars. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol (1 soat).

Iqtisodiyotning mustamlakachilik manfaatlariga bo‘ysundirilishi. 1867-1900 yillarda Turkiston general-gubernatorligida ishga tushirilgan 175 ta sanoat korxonasi ishlab turdi. Paxta xom ashyosiga bo‘lgan ehtiyoj. 1884 yilda Turkistonda yangi paxta navi (Amerika navi) yetishtirish boshlandi.

IV BO‘LIM. XIX ASR OXIRIDA TURKISTONDA MILLIY OZODLIK HARAKATLARI (6 soat)

16-dars. Turkistonda milliy ozodlik harakatlarining boshlanishi va uning sabablari (1 soat).

Mustamlakachilik jabr-zulmining kuchayishi. Turkistonda milliy-ozodlik harakatlarining sabablari. Milliy ozodlik harakatlarining boshlanishi. Xalq harakatlariga qarshi jazo tadbirlarining kuchayishi.

17- dars. Toshkentda "vabo isyoni" (1 soat).

Qo‘zg‘olonning boshlanish sabablari. Qo‘zg‘olonning boshlanishi. «Vabo isyoni» - «Toshotar voqyeasi». Qo‘zg‘olon bostirilgandan keyingi chora-tadbirlar. 1892 yil 18 iyundan «Harbiy holatda deb e‘lon qilingan joylar haqida Qoida» kuchga kirdi.

18-dars. Andijon qo‘zg‘oloni (1 soat).

Qo‘zg‘olonning sabablari. 1891 yilda Rossiyadan aholining Farg‘ona viloyatiga ko‘plab ko‘chirib keltirilishi. Muhammad Ali eshon. Qo‘zg‘olonning boshlanishi. Qo‘zg‘olonchilarning xatolari. Qo‘zg‘olonning bostirilishi.

19-dars. Milliy ozodlik harakatlarining ahamiyati (1 soat).

XIX asr oxiridagi qo‘zg‘olonlarning umumiy xususiyatlari. Qo‘zg‘olonlarning ahamiyati. Milliy ozodlik harakatida Po‘laton, yetimxon, Darvishxon, Muhammad Ali eshon singari kurashchilar ishtirok etgan. O‘zbeklar, qirg‘izlar, tojiklar, turkmanlar bir bo‘lib mustamlakachilarga qarshi kurash olib borganlar.

Umumlashtiruvchi dars (1 soat).

III - NI (1 soat).

V BO‘LIM. XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLAR (4 soat)

20-dars. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpolarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy ahvoli (1 soat).

XIX asrda qoraqalpoqlar. Qoraqalpolarning ijtimoiy hayoti. Muhammad Rahim II «Qoraqalpoq ulusi»ni shakllantirdi. Xo‘jaligi va mashg‘ulotlari. Qoraqalpolarda urug‘chilik va qabilaviy munosabatlar. Urf-odatlar va turmush tarzi.

21-dars. Soliq va majburiyatlar. Xalq qo‘zg‘olonlari (1 soat).

Soliq va majburiyat turlari. Xalq qo‘zg‘olonlari. Xiva xoni Muhammad Aminxon. 1855 yil Ernazarbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olon. Biybozor va Nukus volostida mustamlakachilarga qarshi qariyb o‘n yil (1881-1891) davom etgan Bobo Go‘klan boshchiligida xalq qo‘zg‘oloni. 1900 yil Nukus volosti va Qo‘ng‘irot bekligida norozilik harakatlari amalga oshirildi.

22-dars. Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida (1 soat).

Gandimiyon shartnomasidan so‘ng qoraqalpoqlar hayotidagi o‘zgarishlar. 1870 yillarning boshlariga kelib esa ular deyarli o‘troq turmush kechirishga o‘tishdi. XIX asrning 70 yillarida qoraqalpolarning ma'muriy markazi - Chimboy. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar.

23-dars. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida qoraqalpoqlar madaniyati (1 soat).

Xalq og‘zaki ijodiyoti. «Qirqqiz» dostoni. Ilm-fan. Qoraqum eshon va Tosh madrasalar. Kunxo‘ja (1799-1880), Otash Olshinboy (1788-1875), Ajiniyoz, Berdaq (1827-1900).

VI BO‘LIM. JADIDLAR HARAKATI VA UNING TURKISTON IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI (6 soat).

24-dars. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi (1 soat).

Turkistonda jadidchilik oqimi paydo bo‘lishining shart-sharoitlari. Jadidchilik harakati vujudga kelishi. Ismoil G‘aspirali (1851-1914). Jadidchilik harakatining Turkistonga yoyilishi. 1898 yilda Qo‘qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini, 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochdi.

25-dars. Jadidlar: dasturiy maqsad va vazifalari (1 soat).

Jadidlarning g‘oyalari va mafkurasi. Hurriyat, Musavvot, Adolat (Ozodlik, Tenglik, Adolat). Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo‘qon, Xiva shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi.

26-dars. Jadidchilik harakati namoyondalari va ularning faoliyati (1 soat).

Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalari. Turkiston jadidlar harakatining milliy xususiyatlari. Behbudiy, Munavvar qori – yirik jadid ma‘rifatparvarlari. Turkiston jadidlari podsho yakkahukmronligiga qarshi turdilar. Jadidlar yoshlarni chet elda o‘qitish tarafdorlari.

27-dars. Jadidchilik harakatining Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri (1 soat).

Jadidlar faoliyatining kuchayishi. Jadidlar faoliyatining Turkiston aholisi hayotiga ta'siri. Jadidlarning islom diniga bo‘lgan munosabati. Rossiyadagi siyosiy jarayonlar ta'sirida jadidlar harakatining faollashuvi. Xorazmda jadidlar siyosiy partiyasi tashkil topdi - Yosh xivaliklar. Buxoroda

Yosh buxoroliklar partiyasi tuzildi. 1917 yil mart - Toshkentda jadidlarning yangi partiyasi - «Milliy markaz».

Umumlashtiruvchi dars (1 soat).

IV - NI (1 soat).

VII BO'LIM. TURKISTON VA BIRINCHI JAHON URUSHI

(4 soat)

27-dars. Birinchi jahon urushi va uning Turkistonga ta'siri

(1 soat).

Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri. 1914 yil Turkistonda "favqulotda muhofaza holati". 1916 yil 25 iyunda Rossiya imperatori Nikolay II (1894-1917) "front orqasidagi xizmatlar uchun Turkiston, Sibir va Kavkazdan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar safarbarligi"ni e'lon qildi.

28-dars. Turkistonda 1916 yilgi qo'zg'olonlarning boshlanishi

(1 soat).

Qo'zg'olonning boshlanish sabablari. Sirdaryo viloyatidan 87 ming, Samarqanddan - 38 ming, Farg'onadan - 50 ming kishini mardikorlikka yuborish belgilandi. 1916 yil 4 iyulda Xo'jand shahrida norozilik. Qo'zg'olonning Turkiston bo'yab tarqalishi.

29-dars. Jizzax qo'zg'oloni (1 soat).

Qo'zg'olonning boshlanishi. Jizzax qo'zg'oloniga Nazir Hoji eshon va Abdurahmon jevachilar rahbarlik qilgan. Qo'zg'olonning bostirilishi. 1916 yil Jizzax qo'zg'olonining ahamiyati va uning oqibatlari.

30-dars. Turkistonda 1916 yilgi voqyealarning ahamiyati va oqibatlari (1 soat.)

Qo'zg'olonning yengilish sabablari va oqibatlari. Qo'zg'olonning ahamiyati. Podsho hukumati tomonidan Turkiston aholisining mardikorlikka safarbar qilinishi mahalliy aholining ko'plab norozilik harakatlarga sabab bo'ldi. 1916 yildagi qo'zg'olonlar podsho hukumati tomonidan zamonaviy qurollar yordamida bostirildi. Qo'zg'olon ishtirokchilari podsho hukumati tomonidan jazolandi.

VIII BO'LIM. XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI VA XIVA XONLIGI (6 soat)

31-dars. Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1 soat).

Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli. "Rossiya imperatorining siyosiy agentligi" (1885-1917). Soliq va majburiyatlar. Xalq qo'zg'olonlari. 1885 yil Baljuvonda, 1888 yili Ko'lob bekligida, 1889 yil may oyida Kalifda dehqonlar qo'zg'oloni. Hunarmandchilik. Savdo-sotiq munosabatlari. Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron bilan savdo-sotiq.

32-dars. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi (1 soat).

«Yosh buxoroliklar». Amir Olimxon islohotlari. 1917 yil namoyishlar. 1920 yil 29 avgustda Chorjo'yda qo'zg'olon uyushtirildi. Buxoro amirligining qulashi. 1920 yil BXSР tashkil qilindi.

33-dars. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1 soat).

Xonlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumi. Xonlik ma'muriy jihatdan 20 ta beklikka bo'lingan. Ulardan eng yiriklari Hozorasp, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Qo'ng'iroq. Mehtar (bosh vazir) va devonbegi (devonxona mutasaddisi). yer egaligi. Soliq va majburiyatlar.

34-dars. Tovar-pul munosabatlarning rivojlanishi (1 soat).

Sanoatning rivojlanishi. Rizaevlar, P.A.Manuilov, Tojiniyozov, Solijonovlarning tozalash zavodlari. Xonlikning Rossiya imperiyasi bilan savdo aloqalari. 1885 yilda Kaspiyorti temir yo'lining qurilishi, 1887 yil oxirlarida Amudaryo flotiliyasi ta'sis etilishi. Hunarmandchilik va ichki savdo. Kasanachilikning rivojlanishi.

35-dars. Xiva xonligining tugatilishi (1 soat).

Mamlakatda xalq harakatlarining kuchayib borishi. Yosh xivaliklarning faoliyati. Islohotlar uchun kurash. 1918 yil yanvar - Junaidxon Xivani egalladi, taxtda Sayid Abdulla. Xonlikning tugatilishi. 1920-yil 27-aprel - XXSR ning e'lon qilinishi.

V - NI (1 soat).

IX BO'LIM. MUSTAMLAKA SHAROITIDA TURKISTONDA MADANIY HAYOT (6 soat).

36-dars. Ta'lim tizimi. Matbuot (1 soat).

An'anaviy ta'lim muassasalari. Rus-tuzem maktablari. Yangi usul maktablari. Mustamlakachi hukumatning yangi usul maktablariga qarshi kurashi. Matbuot va jurnalistika. 1906 yil Ismoil Obidov muharrirligida ilk o'zbek gazetasi. 27 iyun O'zbekistonda Matbuot va ommaviy axborot xodimlari kuni sifatida nishonlanadi.

37-dars. Turkistonda ilm-fan taraqqiyoti (1 soat).

Tarix fanidagi yutuqlar. Mulla Olim Mahdum Hoji - «Tarixi Turkiston». Tabiiy fanlarning rivojlanishi. Adabiyot. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, shoira Anbar otin, Avaz O'tar, Ahmad Donish. Jadid adabiyoti.

38-dars. Teatr va musiqa san'ati (1 soat).

Turkistonda xalq teatri. Turkistonda yevropa va rus teatrlarining kirib kelishi. 1910 yilda Samarqand va Toshkentda V.F.Komissarjevskaya truppassi. Jadid teatrlarining vujudga kelishi. «Teatr - bu ibodatxonadir». Turkistonda 1911 yil dastlabki yozma milliy sahna asarlar. Musiqa san'ati.

39-dars. Me'morchilik va tasviriy san'at (1 soat).

Me'morchilik maktablari. Xorazm me'morchilik maktabi. Buxoro me'morchilik maktabi. yevropa uslubidagi binolar qurilishi. Sitorayi Mohi Xosa, Nurillaboy saroyi - Sharq va G'arb an'analari asosida bunyod etilgan. Tasviriy san'at. Naqsh-amaliy san'at markazi Buxoro

VI - NI (1 soat).

Yakuniy dars (1 soat).